



Tadqiqot.uz

ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



30 NOYABR
№34

CONFERENCES.UZ

**“ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ”
3-ҚИСМ**

**«ИННОВАЦИОННЫЕ НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЧЕНЫХ И МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАНА»
ЧАСТЬ-3**

**«INNOVATIVE SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH OF SCIENTISTS AND YOUTH OF
UZBEKISTAN»
PART-3**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистон олимлари ва ёшларининг инновацион илмий-амалий тадқиқотлари” [Тошкент; 2021]

“Ўзбекистон олимлари ва ёшларининг инновацион илмий-амалий тадқиқотлари” мавзусидаги республика 34-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 ноябрь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 37 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

1. To'liqinova Durdona Umidjon qizi BUYUK IRAK YO'LI	7
2. Ниязова Шохсанам Ўткировна РУС ПРАВОСЛАВ ЧЕРКОВИНИНГ ИНТЕРНЕТДАН ФОЙДАЛАНИШГА БЎЛГАН МУНОСАБАТИ ТАҲЛИЛИ	9
3. Шарипова Гузал Усманбековна ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ВЕБ-САЙТОВ РИМСКО-КАТОЛИЧЕСКОЙ ЦЕРКВИ В МАЛАЙЗИИ.....	11
4. Qutlimuratova Zamira Xudayberganovna, Sapayeva Shohista Maxmudovna TARIX FANINI O'QITISHDA ILMIY PEDAGOGIKANING O'RNI.....	13
5. Озодбек Раджабов БИР ХУЖЖАТ ТАҲЛИЛИ	15
6. Муродова Дурдонахон Ҳабибуллоевна З.М. БОБУРНИНГ “БОБУРНОМА” АСАРИ ЖАНУБИЙ ФАРҒОНА ШАҲАРЛАРИ ҚАДИМИЙ ЛАНДШАФТЛАРИ ҲАҚИДА МУҲИМ МАНБА.....	18
7. Хатамова Мунира Маткаюмовна ПАЛЕОЭТНОБОТАНИК АРТЕФАКТЛАР ТАЛҚИНИ ОРҚАЛИ ҚАДИМГИ АҲОЛИНИНГ ҲАЁТНИ ТАЪМИНЛАШ ТИЗИМИНИ ТИКЛАШ	20
8. Amonova Nafisa Komilovna TARIX FANINI O'QITISHDA INTEGRATSION YONDASHUV	23
9. Qo'ziyeva Mohigul Zoirovna TARIX FANINI O'QITISHDA MADANIY YODGORLIKLARNI O'RGATISHNING ANAMIYATI	25
10. Кучаров Жамшид Кулназарович АМИР ТЕМУР ВАФОТИДАН КЕЙИНГИ СИЁСИЙ ВОҚЕЙЛИКЛАР ЖАРАЁНИДА БУХОРО.....	28
11. Мухтаров Гайратхон Арсланович ҒАРБИЙ ТЯН-ШАН ТОҒЛАРИДАГИ ЯНГИ ҚОЯТОШ РАСМЛАРИ.....	31
12. Караманова Гулистан, Мнажатдинова Қызлархан, ҚАРАҚАЛПАҚСТАНДА АЎЫЛ ХОЖАЛЫҒЫ ҚӘНИГЕЛЕРИН ТАЯРЛАҰДА ҲАЯЛ-ҚЫЗЛАРДЫҢ ОРНЫ (1930-1980 ЖЫЛЛАР)	34



ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

BUYUK IPAK YO'LI.

To'lqinova Durdona Umidjon qizi

Andijon Davlat universiteti

Talabasi. Telefon +998889880810

tolqinovadurdona5@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola Buyuk ipak yo'lini xalqaro ahamiyati, tariximizda tutgan o'rni va ro'li haqida ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: Buyuk ipak yo'li, Shoh yo'li, Meridianal yo'l, Lal yo'li, Bronza davri.

Buyuk ipak yo'li mill.avv.2 asrdan millodiy 16 asrgacha mavjud bo'lgan. O'rtayer dengizidan Sariq dengizga qadar qariyb 12 ming km ga cho'zilgan. 18 asr davomida xizmat qilgan. Bu yo'lga asos solinish tarixi Xitoy elchisi Chjan Syan nomi bilan bog'liq. Xan sulolasi vakili U-Di Chjan Syanni elchi sifatida g'arbiy hududlarga yuboradi. U-Di Chjan Syanni elchi qilib yuborishini siyosiy sababi bor edi. U vaqtda

Xan sulolasi shimoldagi Xun qabilalari bilan urush olib borayotgan bo'ladi. Xunlar bilan bo'lgan urushda Xanlar o'zlariga ittifoqchi topmoqchi edi. Shu maqsatda U-Di Chjan Syanni yuboradi. Elchi Xunlar qo'lga asir tushdi va 10 yil tutqunlikda bo'ldi. U tutqunlikdan qochib Issiqko'lga boradi, u yerda Norin orqali Farg'ona vodiysiga o'tgan. Farg'ona hukmdoridan Xunlarga qarshi urushda ittifoqchi bo'lishini so'raydi. Lekin Farg'ona hukmdori faqat savdo-sotiq aloqalari olib borishi mumkin ekanligini aytadi. Chjan Syan sayohatini yana davom etdirib janubda Xunlar qo'lga yana asir tushdi. Bir yil asirligida bo'lib yurtiga qaytdi. Chjan Syan ma'lumotlaridan kegin Xitoy, Farg'ona-Davan, Baqtrya –Dasya, Parfiya –Ansi davlatlari haqida ma'lumotga ega bo'ldi.

Ikki o'rtada aloqalar o'rnatildi, madaniyat almashildi. Xitoy O'rta Osiyodan uzum, poliz mahsulotlari, beda anor, yong'oq, loviya, idish-tovoqlar, musiqa asboblari texnikasini o'zlashtirdi. Farg'ona hukmdori elchiga ot va beda sovg'a qilgan. Imperator beda urug'ini ektirgan, keginchalik u butun shumoliy Xitoy bo'ylab tarqaydi. Farg'ona otlariga esa Samoviy deb nom berildi. Chunki qadimiy Farg'ona otlari juda ham nasldor va ko'rkam ko'rinishga ega bo'lgan.

Farg'onaning samoviy otlari shu jihatlari bilan boshqa otlardan ajralib turgan. Buyuk ipak yo'lidan avval ham O'rta Osiyo hududida bir qancha qadimiy yo'llar mavjud bo'lgan. Ulardan biri Shoh yo'li edi. Bu yo'lga Ahamoniy podsholardan Doro asos sologan. Shoh yo'li poytaxt Suza shahrini Kichik Osiyo shaharlari bilan bo'g'lagan. Ahamoniylar yo'li madaniyat almashunuviga sabab bo'ldi, ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar faollashdi. Bu yo'l mill.avv. 6-4 asrlarda bo'lgan.

Yunon faylasufi Geradotning 9 kitobdan iborat Tarix asaridagi ma'lumotlarga ko'ra, yo'lning uzunligi 2400 km bo'lgan yo'lni 25 km masofasida bekatlar o'rnatilgan. Bekatlar karvonsaroy vazifasini o'tagan. Karvonsaroylarda hukmdor topshirig'i bilan kelgan elchilar ham, savdogarlar ham vaqt o'tkazgan. Aleksandr bosqinidan kegin shoh yo'li tugatildi. Garchi yo'l faoliyatiga nuqta qo'yilgan bo'lsada savdo-sotiq to'xtab qolmadi. Bu yo'ldan avvalroq sharqda Lazurit yo'li bo'lgan. Mill.avv.3-2 ming yilliklar. Lazurit yo'li tarixi Bronza davriga borib taqaladi.

Ipak yo'li qadimda Meridianal yo'l deb nomlangan. Ipak yo'li nomini 1877-yil Rixtgofer bergan. Buyuk so'zini yo'l juda uzun bo'lgani uchun qo'llagan, Ipak nomini esa qimmatbaho mollar almashilgani uchun ishlatgan. Ipak tarixiga nazar soladigon bo'lsak, birinchi Xitoyda yaratilgan. Xitoy malikasi Si Ling Chi tut daraxti soyasida choy ichib o'tirganda, piyolasiga yuqoridan pilla tushadi, u issiq suvda yumshab tolalari yoyilib ketadi. Rivoyatlarga ko'ra ipak olish usuli shu tariqa kashf etilgan. Bu vaqt taxminan mill. avv. 2600-yilga to'g'ri keladi. Xitoy Xalq Respublikasida hozirgi kunda malika Si Ling Chiga atab ipak bayrami o'tkaziladi.

Boshqa manbalarda esa mill.avv. 3400-yilda Fu Gi ipakdan musiqa asbobi yasagan degan ma'lumotlar bor. Ipak Xitoy hududida yaratilganini isbotlovchi bir qancha da'lillar bor. Lekin Xindlar



bu qarashlarga qo'shilmaydi. O'z fikrlarini isbotlashmagan bo'lsa ham ular ipak Hindistonda yaratilgan deb hisoblashadi. Yurtimiz hududida Bronza davriga oid Sopollitepa manzilgohida to'qilgan kiyim- boshlar topilgan. Ular laboratoriyada tekshirilganda ipak va paxtadan to'qilgani aniqlandi.

Bundan kelib chiqib shuni aytish joyizki, ipak mill. avv. 2-ming yillikda Xitoydan O'rta Osiyoga kirib kelgan degan fikr noto'g'ri. Balki mill. avv. 3-ming yillikda bizni hududda mavjud bo'lgan. O'rta Osiyo aholisi ipak va paxtadan kiyim-bosh to'qishda mahoratli bo'lishgan. Sopollitepa aholisi to'qimachilik mahsulotlari tayyorlashda yutug'larga erishgan. Buyuk ipak yo'li orqali Xitoy, O'rta Osiyo, Yaqin Sharq, Hindiston bilan aloqalari millodiy 2-3 asrlardayoq rivojlanib bordi. Xitoy ipak yo'li orqali ipak, shoyi, choy mahsulotlarini chiqargan. Xitoyga esa l'al gilam, polos, sholcha, dori-darmon, kirib kelgan. Xitoy ipak yo'li orqali faqat sharq davlatlari bilan savdo aloqa olib borgan.

Millodiy 97-yilda Gan In Fors qo'ltig'iga kelgan, 100-yilda May Titsion Langmondga kelgan bo'lsada, uzoq bo'lganligi sababli g'arb bilan savdo aloqalari yo'lga qo'yilmadi. Ipak yo'li orqali esa deyarli barcha sharq davlatlari bir-biri bilan bog'landi. Madaniyat almashinuvi ro'y berdi. Masalan tegirmon hozirgi Eron hududida Forslar tomonidan yaratilgan bo'lsada madaniyat almashinuvi ta'sirida boshqa sharq davlatlariga yoyildi.

Buyuk ipak yo'li, Buyuk geografik kashfiyotlar davridan so'ng o'z ahamiyatini yo'qotdi. Sharqdagi musulmon davlatlarida, Yevropa davlatlariga nisbatdan ortda qolish boshlandi.

Buyuk ipak yo'li keng qamrovli bo'lgani uchun bir-necha qismga bo'lingan. Sariq dengiz sohilidagi Sian shahridan boshlanib, Lanchjou orqali Dunxuanga kelgan. Dunxuanda yo'l ikkiga bo'lingan ular shimoli-g'arbiy va janubi-g'arbiy tarmoqlar. Shimoli-g'arbiy tarmoq Dunxuan orqali Bami, Kuchi, Turfandan Tarim vohasiga o'tgan va undan Qashqarga borgan. Janubi-g'arbiy tarmoq Taklamakon orqali Xo'tanga undan, Yorkent orqali Pomir va Vaxonga kelgan. Kegin Zariaspiyani Balxga kelgan. Farg'ona vodiysida esa yo'l tabiiy iqlim sharoyiti sababli ikkiga ajragan. Bular qishgi va yozgi yo'l. Keginchalik yo'lni Movoraunaxr va Xurosonga istilosi vaqtida Arablar o'z qo'liga olgan. Chingizxon istilosidan kegin esa yo'l bir qancha vaqt harakatsiz qoldi. Amir Temur davriga kelib esa yo'l jonlandi.

Savdogarlar uchun havfsizligi ta'minlanib, savdo ancha yaxshilandi. Sharofiddin Ali yazdiyning ma'lumotiga qaraganda Amir Temur "Mening saltanatimda bir yosh bola, bir lagan tillani boshida ko'tarib, davlatimni u boshidan bu boshiga o'tsa ham, uning moliga hech kim daxl e'tmaydi" degan. Sohibqiron yo'lni qanchalik siyosiy ahamiyatga ega ekanligini bilib, uni o'z ta'sirida tutib turishga harakat qilgan. Savdogarlarga yengilliklar, imtiyozlar yaratib bergan. Lekin Temur vafotidan kegin hammasi bekor qilingan.

Mustaqillik yillarida yo'lni tiklashga qaratilgan keng qamrovli islohotlar olib borildi.

YuNESKO bilan hamkorligda "Ipak yo'li muloqot yo'li" mavzusida o'tkazilgan tadbirlar muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 1995-yil 2-iyunda "Buyuk ipak yo'lini qayta tiklashda O'zbekistonni ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro sayyohlikni rivojlantirish borasida chora-tadbirlar to'g'risida" farmoni e'lon qilindi.

Xulosa: Men Buyuk ipak yo'li tarixini o'rganib shuni angladimki, bu yo'l shunchaki oddiy bir yo'l bo'lmagan. U sharq davlatlari madaniyatiga turtki bo'lgan va ilm-fan almashinuviga sabab bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R. Shamsutdinov, Sh. Karimov, S. Hoshimov, Vatan tarixi K1 "Sharq" NMAK 2020.
2. Qadimgi sharq tarixi. Kabirov, "Tafakkur" 2016.
3. Arxeologiya. Egamberdiyeva, "Fan va texnologiya" 2011



РУС ПРАВОСЛАВ ЧЕРКОВИНИНГ ИНТЕРНЕТДАН ФОЙДАЛАНИШГА БЎЛГАН МУНОСАБАТИ ТАҲЛИЛИ

Ниязова Шоҳсанам Ўткировна,

Ўзбекистон халқаро ислом академияси таянч докторанти,

Тел.: +998935930604

niyazovashohsanam1@gmail.com

Аннотация. Христиан динининг йирик йўналишларидан бўлмиш православлик бошқа йўналишлар (католиклик ва протестантизм)дан фарқли ўлароқ дастлаб Интернетдан фойдаланишга нисбатан ўзининг салбий позициясини намоён қилди. Тадқиқотда Рус православ черкови олий раҳнамоларининг кибермаконга бўлган ўзгарувчан муносабати, бунинг замирида қандай асослар мавжудлиги таҳлил қилиниб, Черковнинг бугунги кундаги онлайн фаолиятига назарий баҳо берилган.

Калит сўзлар: Рус православ черкови, патриарх Кирилл, кибермакон, ижтимоий тармоқлар.

Христиан динининг бошқа йўналишларидан фарқли равишда православликнинг Интернетни қарши олиши дастлаб қийин кечган. Православ жамоалари кенг тарқалган Россияда Рус православ черкови компьютер ва ахборот технологияларидан фойдаланишни 1996-97 йилларда бошлаган¹. Шу йили Москва Патриархатининг расмий сайти (russian-orthodox-church.org.ru) иш бошлаган.

Православлик доирасида кибермаконга бўлган муносабат ўз аксини топган биринчи расмий баёнот 2004 йилда Москва ва бутун Русия патриархи Алексий II томонидан берилган. Унда Интернет шарофати билан тармоқнинг кенг аудиториясини черковнинг ички ҳаётига оид муҳим янгиликлардан, Муқаддас Синод фаолияти, черковнинг ташқи алоқаларидан хабардор этиш имконияти туғилганлиги таъкидланган. Қолаверса, ҳақиқат тўғрисидаги билимни кенг тарқатиш шарт экани, бу имкониятни тақдим этувчи воситани рад этишга эса Черков ҳақли эмаслиги, миссионерлик ишида қўл келувчи ҳар бир имкониятдан фойдаланиш зарурлиги айтилган.

2009 йилда патриарх Алексий IIнинг вафот этиши ва ўрнига Кириллнинг патриарх этиб сайланиши Рус православ черковининг Интернетга бўлган позициясини ўзгартирди. Кибермакон билан боғлиқ янгиликлар янги патриархга ёқмаслиги аён бўла бошлагач, бу ҳолат православ жамоаларга ҳам таъсир этди.

2012 йилда Москва патриархатининг черковнинг ташқи алоқалар бўлими митрополити Волоколамский Иларион марказий телеканаллардан бирига берган интервьюсида Интернетни “одамлар ўз агрессиясини тўкиб-сочадиган макон”, деб таърифлаган. Кибермаконда православлик эътиқодидагилар, хатто руҳонийлар ҳам доим ниманидир қоралаб ёзишга муккасидан кетаётгани, Исони тилга олиш ва даъватларини кенг ёйиш ҳолатлари жуда камлигини қайд этган².

2013 йил Архиерей соборида патриарх Кирилл ижтимоий тармоқларни “Черковга қарши йўналтирилган тухмат ва ёлғонларнинг бош манбаларидан бири”, деб атаган³. Черков ҳақидаги турли бўҳтон ва ҳақиқатдан йироқ маълумотларнинг кўплигини таъкидлаб, асосан ёшлар бундай ёлғон хабарларнинг “қурбони” бўлиб қолаётганлигидан ташвишда эканлигини билдирган. Шу сабаб Черков миссияси Интернетда кенг ёйилиши лозимлиги, кибермаконда муносиб ўринга эга бўлмаслик ўз ожизлиги ва биродарини “қутқаришга” қодир эмаслигини тан олиш билан баробарлигини тан олган. Қолаверса, виртуал миссия приходдаги реал ибодат ўрнини босмаслигини, балки унга тўлдирувчи бўлибгина хизмат

¹ Православная церковь и Интернет. Открытые системы. 2003 г. № 5. osp.ru/pcworld/2003/05/165719

² Митрополит Иларион: Чем больше позитива будет в средствах массовой информации, тем меньше будет агрессии. 22 сентябрь 2012 год. Отдел внешних церковных связей Московского патриархата - mospat.ru/ru/news/53691/ - мурожаат санаси: 08.11.2021 й.

³ Отдел внешних церковных связей Московского патриархата - <https://mospat.ru/ru/news/53113/> - мурожаат санаси: 08.11.2021 й.



қилишини қўшимча қилган¹.

Олий раҳнамоларнинг Интернетга бўлган гоҳ салбий, гоҳ ижобий муносабатига қарамай, православ жамоаларининг кибермаконга бўлган қизиқиши бутун дунёдаги инсонларнинг иштиёқи сингари ортиб бораверди. Православларнинг тобора кўпроқ Интернетга мурожаат қилиши Рус православ церковини ўз миссиясини амалга оширишда Интернетнинг ролини қайта ўйлаб кўришга мажбур қилди.

2011 йилда “Интернетда РПЧ епархияларининг мавжуд бўлиш стандартлари” ишлаб чиқилди. Унда Интернетда шунчаки ташриф қоғози сифатидаги оддий сайтнинг мавжудлиги епархиал бошқарувнинг олий мақомига тўғри келмаслиги, епархия ҳаётининг ёритилиши унга муносиб даражада амалга оширилиши лозимлиги айtilган². Бундан ташқари, барча ўз-ўзини бошқарувчи церковлар, экзархатлар (мамлакатдан ташқарида жойлашган алоҳида церков округи), митрополияларга ўз веб-сайтларига эга бўлишга ҳақли экани қайд этилган.

Бутун дунёда инсонларнинг диний эҳтиёжларини қондириш учун Интернетга тобора кўпроқ мурожаат қилиши Рус православ церковининг ҳам бу борадаги позициясини ўзгартиришига олиб келди. Бугунги кунда Патриарх ижтимоий тармоқлар ҳамда онлайн платформаларда бирин-кетин ўз саҳифаларини очди (Twitter’да @PatriarhRus; facebook.com/PatriarhKirill; Instagram’да @patriarchkirill; youtube.com/user/russianchurch ва бошқ.) ва уларда фаоллик кўрсатишга интилиб келмоқда.

¹ Миссия в виртуальном пространстве не может подменять собой приходскую работу, но должна ее дополнять, подчеркнул Предстоятель Русской Церкви. <https://mospat.ru/ru/news/53113/>

² <http://www.patriarchia.ru/db/text/1794546.html> - мурожаат санаси: 04.10.2021 й.



ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ВЕБ-САЙТОВ РИМСКО-КАТОЛИЧЕСКОЙ ЦЕРКВИ В МАЛАЙЗИИ

Шарипова Гузал Усманбековна,
базовый докторант Международной
исламской академии Узбекистана,
тел.: +998974622897

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос защиты свободы вероисповедания граждан Малайзии, способствующий развитию культуры межнациональных и религиозных отношений. А также приводится теоретический анализ религиозной толерантности и деятельности Римско-католической церкви Малайзии в интернет пространстве.

Дано краткое описание официальных сайтов трех архиепархий Римско-католической церкви в Малайзии на примере обращений верующих непосредственно в епархию с посредством Интернета и социальных сетей.

Ключевые слова: Римско-католическая церковь, католические веб-сайты, культура межнациональных и религиозных отношений, Малайзия, епархия, архиепархия.

На сегодняшний день население Малайзии состоит из более 180 этнических групп. В 3-ей статье первого пункта Конституции Малайзии¹ гарантируется свобода религии, религия ислам является официальной религией Малайзии, а также другие религии могут исповедоваться в мире и согласии в любой части Федерации, что обеспечивает гарантии свободы вероисповедания в стране. Законы предусматривают права и интересы всех малайзийцев независимо от их религиозной и этнической принадлежности².

Этно конфессиональная структура Малайзии (малайцы - всего 48% населения, китайцы - 32%, индийцы - 8,5%), а также “более половины населения (52%) исповедует ислам. Что в свою очередь позволяет полноценно функционировать и другим религиям, которым следуют в Малайзии, такие как буддизм, даосизм, индуизм, христианство, сикхизм и другие. Кроме того, шаманизм практикуют в Восточной Малайзии”. Столь интересное многообразие в вероисповедании имеет множество сторонников, и каждая сторона придерживается своих традиций, культуры передавая их будущему поколению³. Наряду с выше указанным хотелось бы отметить деятельность Римско-католической церкви Малайзии.

Второй пункт 12 статьи Конституции Малайзии гарантирует религиозным группам как мусульман, так и других вероисповеданий учреждать и содержать учебные заведения в соответствии с законом. Третий пункт 12 статьи Конституции Малайзии гарантирует не вмешательство в религиозные обряды немусульманских общин⁴.

Таким образом, гарантированная гражданам защита свободы вероисповедания позволяет верующим отмечать религиозные праздники, осуществлять свои религиозные убеждения, не ущемляя интересы других лиц, а также осуществлять свою деятельность в рамках закона. В силу различных причин, в том числе и с учетом сегодняшних реалий связанных с коронавирусом, многие верующие стали активно пользоваться Интернетом, посещать католические веб-сайты и социальные сети. В частности, верующие Римско-католической церкви Малайзии активно посещают католические веб-сайты, такие как www.vaticannews.va, www.archkl.org, www.heraldmalaysia.com (онлайн издания газеты «Malaysia Herald») и официальные сайты трех архиепархий Римско-католической церкви в Малайзии.

Сайт Римско-католической архиепископии Куала-Лумпура www.archkl.org, Римско-католической архиепископии в Кучинге kuchingcatholic.org и веб-сайт Римско-католическая архиепархия Кота-Кинабалу catholicadkk.org позволяет всем верующим обращаться

¹ Constitution of Malaysia - <https://worldconstitutions.ru> дата обращения 27.11.2021г

² Г. У. Шарипова Национальная политика религиозной толерантности в государственной системе Малайзии *Imiy axborotnoma* 2021-yil, 2-son (126) УДК: 711.6:502 103 стр.

³ Диншуносликнинг долзарб муаммолари. – Тошкент: “Ўзбекистон халқаро ислом академияси” нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2021. – 436.

⁴ Г. У. Шарипова Национальная политика религиозной толерантности в государственной системе Малайзии *Imiy axborotnoma* 2021-yil, 2-son (126) УДК: 711.6:502 103 стр.



непосредственно в епархию с посредством Интернета и социальных сетей.

Сегодня роль Интернета невозможно игнорировать – это инструмент, способствующий коммуникации всех граждан и верующих. Все вышеуказанные сайты, должны рассматриваться, как поддержка взглядов верующих Римско-католической церкви Малайзии позволяющее расширять возможности получения религиозного образования посредством интернета. Сайт Римско-католической церкви Малайзии продвигает идею расширения религиозного образования и просвещения, что в свою очередь очень актуально. Это в интересах многонационального и многоконфессионального государства Малайзии, в котором проживают представители многих национальностей, имеющих свою историю, вероисповедание и обладающие уникальными особенностями культуры.

Содействующий дальнейшему укреплению религиозной толерантности в государственной системе Малайзии и способствующий формированию фундамента достижения межконфессионального согласия.



TARIX FANINI O‘QITISHDA ILMIY PEDAGOGIKANING O‘RNI

Qutlimuratova Zamira Xudayberganovna

Xorazm viloyati Urganch shahar

4-son umumta’lim maktabining tarix fani o‘qituvchisi

Sapayeva Shohista Maxmudovna

Xorazm viloyati Urganch shahar

4-son umumta’lim maktabining tarix fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarix faninni o‘qitishning o‘ziga hos xususiyatlari va bu fanni o‘rgatishda ilmiy pedagogikaning o‘rnini ko‘rib chiqiladi. Shuningdek ilmiy pedagogikaning turli metodlari va zamonaviy metodlari tahlil qilinadi

Kalit so‘zlar: pedagogika, ilmiy pedagogika, gipoteza, innovasion, g‘oya, mafkura, kuzatish metodi, gipoteza qilish usuli, o‘zlashtirish, qo‘llanilish usuli.

O‘zbekistonning davlat mustaqilligini qo‘lga kiritishi tufayli xalqimizning asriy orzusi ushaldi, o‘z taqdiri va kelajagini o‘zi yaratadigan bo‘ldi. Tarixan qisqa davrda jamiyatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida keskin burilish yasaldi. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish, faol demokratik yangilanishlarni amalga oshirish bilan bog‘liq qator islohotlar o‘tkazildi. Jumladan, ana shu buyuk o‘zgarishlarni asrlar davomida orzu qilgan xalqimizning ko‘hna tarixiga bo‘lgan munosabati tubdan o‘zgardi. Ayniqsa, bugungi murakkab globallashuv davrida ma’naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xalqimiz ma’naviyatini asrash va yanada yuksaltirish, yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g‘oya va mafkuralar ta’siridan saqlash va himoya qilishda Vatan tarixini har tomonlama va chuqur tadqiq etish, birlamchi manbalarga tayanib talqin etish, kelajak avlodga haqiqiy tariximizni o‘qitish orqali ularni yuksak ma’naviyatli shaxslar etib tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etadi

Tarixni o‘qitishda ilmiy pedagogik usuldan foydalanish tushunish va ishtirok etish qobiliyatini rivojlantiradi. Har o‘quv yili boshida men o‘quvchilarimdan: “Nega biz tarixni o‘rganamiz?” degan savol bilan yuzlanaman. Javob odatda “Biz o‘tmishdagi xatolarni takrorlamasligimiz uchun” degan javob olaman. Tarixiy voqealarning axloqiy, siyosiy va ijtimoiy murakkabliklarini tushunish - bu jamiyatni hozirgi vaqtda yaxshiroq qaror qabul qilishimizga yordam beradi. Lekin qanday qilib biz o‘z sinfimizda real hayotda bunday ta’limni targ‘ib qila olamiz? Tarixiy so‘rovlaridan foydalanish, xuddi ilmiy uslub singari, tushunish va jalb qilishni yaxshilaydi. Tarix fanini o‘qitishda bir nechta pedagogik metodlardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi. Ushbu metodlar quyidagilardan tashkil topgan:

Bashorat qilish usuli.

Biz tez-tez gipoteza so‘zi faqat fan darsida ishlatiladi deb o‘ylaymiz, lekin tarixchilar ham bashorat qilishadi. Tarix darsini tezis bilan boshlashning o‘rniga, tarixiy gipoteza bilan tadqiqot faoliyatini boshlang.

Savol- Javobni sinf uchun tuzgandan so‘ng, har bir o‘quvchi individual gipotezani yozadi. Biz yaqinda Fuqarolar urushi bo‘limini tugatganimiz sababli, ko‘plab o‘quvchilar: “Qayta qurishni ma’qullaydigan shimoliy shtatlar ko‘proq yodgorliklar yaratdilar, chunki ular urushda g‘alaba qozonganlarini eslashni xohlashdi”, deb taxmin qilishdi. Ba’zi o‘quvchilar o‘z bashoratlarini Sharlottesvildagi tartibsizliklar haqidagi bizning hozirgi voqeamiz bilan bog‘lab, shunday taxmin qilishdi: “Qayta tiklanishni ma’qullamagan janubiy shtatlar o‘z yodgorliklarini yaratdilar, chunki ular halok bo‘lgan askarlarini ulug‘lashni xohlashdi. Shimoliy shtatlar ko‘p yodgorliklar qurishni xohlamaydilar, chunki Shimoliy urushda g‘alabani nishonlashdan ko‘ra, mamlakatni birlashtirishga e’tibor qaratmoqchi edi”. Bashorat qilish o‘quvchilarni tarixiy empatiyani o‘rganishga undaydi. Turli odamlar tarixiy voqeani qanday qabul qilishdi? Nima uchun? O‘quvchilar dalilni isbotlovchi ma’lumotni topishga urinishning o‘rniga, faraz yaratib, dalillar ularga nima deydi, deb hayron bo‘lishadi: Ma’lumotlar mening bashoratinga to‘g‘ri keladimi yoki menga oldindan aytmagan narsani ko‘rsatadimi?

O‘quvchilarning dalil topishga bo‘lgan faolligini oshirish uchun o‘qituvchilar o‘quvchilardan o‘z manbalarini topishni so‘rashlari mumkin. Masalan, mening sinfimdagi o‘quvchilar guruhi fuqarolar urushi yodgorliklari qayerda joylashganligini tushunishga dalil topdilar. Ma’lumot yig‘ish o‘quvchilarga manbalar bilan shug‘ullanish va o‘z farazlari bilan bog‘liqlikni ko‘rish



imkonini beradi. Bu so'rovga asoslangan ssenariyda javob sir bo'lib qoladi va o'quvchilar eski xulosalarni takrorlash o'rniga yangi xulosalar chiqarishga sarmoya kiritadilar.

Ma'lumotlarni tahlil qilish va xulosalarni ishlab chiqish usuli.

Tarix o'qituvchilari sifatida biz o'quvchilarni manbalarni tahlil qilishga va manba tahlilini tarixiy kontekst bilan bog'lashga ko'nikamiz. Men o'z o'quvchilarim bilan ma'lumotlarni tahlil qilish iborasini ishlatishni yaxshi ko'raman, chunki bu ularni ma'ruzada aytganlarimni takrorlashga xalaqit beradi va ularni tarixchilarga aylantiradi, ular haqiqiy tarixiy tadqiqot deb hisoblaydi. Masalan, mening ko'plab o'quvchilarim shtatlar fuqarolar urushi yodgorliklari qurilgan bir vaqtda Jim Krou qonunlarini qonuniylashtirganini bilishdi.

Tarixni o'rgatish uchun ilmiy-pedagogik usuldan foydalanish - moslashuvchan, takrorlanadigan yondashuv. Bu o'quvchilarni tanqidiy fikrlash va baholashga jalb qilgani uchun, bu usul tarix darsining yakuniy natijasi esda qoladigan narsa emas, balki nima qilish kerakligi haqiqatini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. –T.:O'zbekiston, 1999.
2. Oblomurodov N., va boshqalar. O'zbekiston tarixi. O'quv qo'llanma. –T.: Yangi asr avlodi, 2011.
3. Usmovov Q. va boshqalar. O'zbekiston tarixi. Darslik. –T.: Sharq, 2007..



БИР ҲУЖЖАТ ТАҲЛИЛИ

Озодбек Раджабов
Ўзбекистон Миллий
университети таянч докторанти

Аннотация: Мазкур тезисда Ўзбекистон Миллий архивида сақланаётган Р 95 фонд, 1 рўйхат, 1277 йиғма жилд қатига яширинган маълумотлар, хусусан Ўзбекистон ССРда темир йўллар қурилишига бағишланган фактлар таҳлил қилинади.

Калит сўзлар: Ўрта Осиё темир йўллари, транспорт тизими, Самарқанд, Когон, Қарши темир йўл участкалари

Ўрта Осиё темир йўллари тармоғининг Ўзбекистон ССРга тегишли қисмларида марказий ҳукумат қарори билан янги тураржойлар қурилиши режалаштирилган бўлиб, мазкур топшириқ ижроси Ўрта Осиё темир йўллари бошқармаси томонидан 1928 йилда ўрнатилган тартибда ўрганиб чиқилган. Ўрганишлар давомида шу нарса аниқ бўлдики, транспорт қурилиши кооперациялари томонидан амалга оширилаётган қурилиш жараёнлари қониқарли аҳволда эмас. Масалан ярим йиллик давомида темир йўлларнинг Самарқанд, Когон, Қарши участкаларида биттадан уй қурилиб битказилган, холос.

Когон, Самарқанд каби ҳудудларда қурилиши мўлжалланган уйлар ҳали ниҳоясига етмаган. Қурилиш жараёнлари жуда чўзилиб кетган. 1927 йилда қурилиши бошланган объектлар бир йил давомида қуриб битказилмаган. Қурилиш жараёнларининг ўлда-жўлда кетаётганлигига сабаблардан бири қурилиш ишлари об-ҳавонинг қурилиш учун қулай мавсумларида эмас, балки кечикиброқ бошланганлигидир. Жумладан, Когонда қурилиши режалаштирилган уйнинг барпо қилиниш жараёни сентябр ойининг охирида бошланган. Бундан ташқари қурилиш ишларининг чўзилиб кетётганлигига қурилиш материалларининг ўз вақтида етказиб берилмаганлиги ҳам сабаб бўлган. Бундай ҳолат Когон, Қарши каби қурилиш участкаларида кузатилганлигини архив ҳужжатлари исботлайди¹.

Қурилиш материалларининг ўз вақтида етказилмаслиги бошқа бир муаммога ҳам сабаб бўлмоқда. Яъни қурилиш суръатларини сунъий ошириш мақсадида маҳаллий, сифати паст маҳсулотларнинг қўлланиши ҳолатлари ҳам кузатилган. Чунончи, Когон участкасидаги уйлар қурилишида деворларни суваш учун тайёрланган эритмага маҳаллий қум ва шўр тупроқнинг қўлланиши деворларнинг орадан бир йил ўтмасдан нураб бошлашига сабаб бўлган ва бу ҳолат ўтказилган жорий текширишлар натижасида аниқланган.

Қурилиши якунланган уйларни темир йўл ишчиларига тақсимлаб бериш жараёнида ҳам кўплаб адолатсизликларга йўл қўйилганлиги бир қанча темир йўл станциялари ишчилари (асосан ерли миллат вакиллари)нинг ЎзССР Халқ Комиссарлари советига мурожаат йўллашларига сабаб бўлган. Жумладан, Андижон I станцияси ишчилари шикоятларини Республика Халқ Комиссарлари совети кўриб чиқиб, мазкур масалани жойида ҳал қилишга оид топшириқ берган, яъни темир йўл ишчиларининг йиғилишини ўтказиб, квартиралар тақсимотини омманинг кўзи олдида ўтказилиши топшириғини берган².

Худди шундай мазмундаги хат Қўқон темир йўл участкасидан ҳам Республика Халқ Комиссарлар советига йўлланган бўлиб, мазкур темир йўл тармоғи бўйлаб барпо қилинган 82, 83 уйлар тақсимоотида ҳам ноҳолисликка йўл қўйилганлиги кўрсатилган. Каумов, Полубелов, Нуштъев каби темир йўл ишчилари ўз оилаларида етти-саккиз нафар киши бўлатуриб бир хонали квартира билан таъминланган бўлсалар, худди шу уйлардан оиласида икки-уч нафар одам яшовчи ишчиларга 2 хонали квартиралар тақдим этилганлиги квартиралар тақсимоотида хатоликлар йўл қўйилганлигидан далолатдир. Мазкур муаммони ижобий ҳал қилиш учун Қўқон темир йўл участкаси ишчилари томонидан Республика масъулларидан ёрдам сўралган. Ўз навбатида Республика Халқ Комиссарлар совети муаммони ҳал қилиш учун биринчи категориядаги темир йўл транспорти ходимларини икки ёки уч хонали квартиралар билан таъминлаш тўғрисида Қўқон темир йўли бошқармасига

¹ ЎзМА Р 95 фонд, 1 рўйхат, 1277 йиғма жилд, 2 варақ

² ЎзМА Р 95 фонд, 1 рўйхат, 1277 йиғма жилд, 25 варақ



топширик берилиб, натижаси билан огоҳлантириш вазифаси юклатилган¹.

Ўрта Осиё темир йўллар бошқармаси томонидан Ўзбекистон ССР Халқ Комиссарлари Ишчи-деҳқон Инспекциясига хат йўллаб марказлашган ревизор-инструкторлик аппарати ўрнатилган тартибдаги текширувларни ўтказишга ҳақли эканлиги ҳамда тартибот бошқармасига бўйсунмаслигини билдирган. Агар Республика ҳудудидаги темир йўлларда жиддий камчилик ва муаммолар аниқланадиган бўлса, мазкур ҳолатлар юзасидан ўтказиладиган тафтиш(ревизия)ларни ташкиллаштириш учун алоҳида комиссиялар шакллантирилади. Бу комиссия таркибига Умумиттифоқ йўллар бошқармасининг раҳбарий аъзоларидан масъуллар киритилади, деб маълумот берилган².

Темир йўллар эксплуатацияси бўйича муаммоли вазиятлар учун тузиладиган Ўрта Осиё темир йўллари бошқармасининг тафтиш-инструкторлик(ревизия) кенгаши таркиби қуйидагича бўлган³:

№	Фамилияси	Мутахассислиги	Яшаш жойи	Текширув ёки хизмат кўрсатадиган объекти
1	Шаросов	Ревизор	Когон	Чоржуй станциясидан то Фароб станциясигача, Қизилтепа, Малик, Когон-Бухоро станциялари
2	Рускевич	Ревизор	Тошкент	Урсатъевский станциясидан Тошкент станциясигача
3	Кривинский	Ревизор	Қўқон	Хильково станциясидан биринчи Қўқон станциясигача
4	Битолин	Ревизор	Андижон	Қўқон I станциясидан Жалолобод станциясигача
5	Карин	Ревизор	Қарши	Когон станциясидан Амирободгача
6	Гарновский	Ревизор	Термиз	Қарши станциясидан Толимаржонгача

Темир йўлларда содир бўлиши мумкин бўлган фавқулудда воқеа-ҳодисалар бўйича тузиладиган Ўрта Осиё темир йўллари бошқармасининг тафтиш-инструкторлик(ревизия) кенгаши таркиби эса қуйидаги тартибда бўлган⁴:

№	Фамилияси	Мутахассислиги	Яшаш жойи	Текширув ёки хизмат кўрсатадиган объекти
1	Лечинский	Ёнғин инструктори	Қарши	Китоб-Қарши-Бухоро
2	Русаев	Ёнғин инструктори	Термиз	Самсонов станциясидан Душанбе станциясигача
3	Борисочкин	Ёнғин инструктори	Самарқанд	Самарқанд станциясидан Қизил-тепа станциясигача
4	Сверкашин	Ёнғин инструктори	Қўқон	Андижон I станциясидан Андижон II станциясигача
5	Кулешин	Ёнғин инструктори	Андижон	Андижон I станциясидан Жалолобод станциясигача

Темир йўллар тармоғининг иқтисодий масалалари бўйича тузиладиган Ўрта Осиё темир йўллари бошқармасининг тафтиш-инструкторлик(ревизия) кенгаши таркиби эса қуйидаги тартибда бўлган⁵:

¹ ЎзМА Р 95 фонд, 1 рўйхат, 1277 йиғма жилд, 24 варак

² ЎзМА Р 95 фонд, 1 рўйхат, 1277 йиғма жилд, 18 варак

³ ЎзМА Р 95 фонд, 1 рўйхат, 1277 йиғма жилд, 16 варак

⁴ ЎзМА Р 95 фонд, 1 рўйхат, 1277 йиғма жилд, 16 варакнинг орқа томони

⁵ ЎзМА Р 95 фонд, 1 рўйхат, 1277 йиғма жилд, 17 варак



№	Фамилияси	Мутахассислиги	Яшаш жойи	Текширув ёки хизмат кўрсатадиган объекти
1	Лягин	Ревизор	Когон	Қорақўл-Когон-Бухоро
2	Дубровин	Ревизор	Каттакўрғон	Когон-Жума
3	Гейде	Ревизор	Самарқанд	Жума-Самарқанд
4	Уласевич	Ревизор	Тошкент	Кауфман-Тошкент
5	Кустов	Ревизор	Қўқон	Посъетовка-Қўқон-Қорақалпоқ
6	Плисов	Ревизор	Фарғона	Қўқон-Андижон-Қизилқия
7	Тимофеев	Ревизор	Наманган	Қорақалпоқ-Андижон
8	Крилов	Ревизор	Андижон	Андижон I станциясидан Жалолобод-Тентаксой
9	Полторацкий	Ревизор	Қарши	Когон-Қарши
10	Дубонос	Ревизор	Термиз	Сурхон-Душанбе

Тяга(Локомотив) ва ҳаракатланиш бўйича комиссия таркиби¹

№	Фамилияси	Мутахассислиги	Текширув ёки хизмат кўрсатадиган объекти
1	Луговцев	Ревизор	Тошкент
2	Шмаль	Ревизор	Когон
3	Булгин	Ревизор	Самарқанд
4	Елагин	Ревизор	Қўқон
5	Бурковников	Ревизор	Қарши

Тармоқ йўллар ва иншоотлар бўйича комиссия таркиби

№	Фамилияси	Мутахассислиги	Яшаш жойи	Текширув ёки хизмат кўрсатадиган объекти
1	Соколов	Ревизор	Когон	Марв станциясидан 1429 км гача бўлган бутун Қарши линияси
2	Шурубов	Ревизор	Самарқанд	Ўрта Осиё темир йўллар тармоғининг 1430 километрдан Тошкент станцияси ва Андижонгача

Хўжалик масалалари бўйича²

№	Фамилияси	Мутахассислиги	Яшаш жойи	Текширув ёки хизмат кўрсатадиган объекти
1	Советкин	Ревизор	Самарқанд	Когон станциясидан Жиззах станциясигача
2	Шоваев	Ревизор	Ташкент	Жиззах станциясидан бутун Фарғона линияси бўйича

Хулоса қиладиган бўлсак, Ўзбекистонда совет даврида темир йўллар қурилиши ва таъмирланиши жараёнлари марказ томонидан режалаштирилган ҳолатда олиб борилган. Ўз вақтида давлат режаларининг амалга оширилмаганлиги сабаблари эса қурилиш ва монтаж(таъмирлаш) жараёнларининг моддий-техник жиҳатдан яхши таъминланмаганлиги ва маҳаллий шарт-шароит билан ҳисоблашилмаганлиги эди.

¹ Шу жойда

² ЎзМА Р 95 фонд, 1 рўйхат, 1277 йиғма жилд, 17 варак



З.М. БОБУРНИНГ “БОБУРНОМА” АСАРИ ЖАНУБИЙ ФАРҒОНА ШАҲАРЛАРИ ҚАДИМИЙ ЛАНДШАФТЛАРИ ҲАҚИДА МУҲИМ МАНБА

Муродова Дурдонахон Ҳабибуллоевна

Тарих фанлари номзоди, катта илмий ходим

ЎзР ФА Миллий археология маркази

Телефон: +998 99 726 78 86

d.murodova@archaeology.uz

Аннотация: Ўзбекистон археологияси фанида янги ва ривожланиб бораётган соҳалардан бири бўлган ландшафт археологиясининг ўзига хос жиҳатлари, шунингдек, қадимий ёзма манбаларда шаҳарлар ландшафтларига доир маълумотларнинг ўрни ёритишга ҳаракат қилинган. З.М. Бобурнинг “Бобурнома” асарида Жанубий Фарғонанинг ландшафтлари ҳақидаги маълумотлар кўрсатиб берилган.

Калит сўзлар: Ландшафт археологияси, Жанубий Фарғона, Бобурнома, манбалар, топонимия.

“Ландшафт археологияси” ҳозирги замон фанининг фаол ривожланаётган соҳаларидан бири бўлиб, унинг мақсади инсон ва унинг яшаш муҳити билан ўзаро муносабатларининг турли жиҳатларини ҳар томонлама ўрганишдир. Анъанавий археологик таҳлил усулларини табиий фанлар учун ишлаб чиқилган усуллар билан бирлаштирилган ҳолда кўп тармоқли ёндашув асосида олиб борилган тадқиқотлар қадимдан инсонларнинг ўз теварак атрофларини ўзлаштириш, табиий ресурслардан фойдаланиш ижтимоий бирликлар, ҳукумат тузилиши ва қадимий жамиятнинг бошқа бир неча жиҳатларини ёритиш имконини беради.

Ўзбекистон археологияси комплекс тадқиқотлари тарихида ландшафтлар тарихига ҳам алоҳида эътибор берилганлигини кўриш мумкин. Бундай тадқиқотлар мамлакатда дастлабки комплекс археологик экспедициялар билан боғлиқ эди. Ландшафт тарихи нафақат тарихий география, ўлкашунослик, топонимика, археология каби ижтимоий фанлар билан, балки бугунги кунда ахборот ва рақамли технологиялар, ГИС/ГАТ технологиялари, шунингдек, аниқ ва табиий фанлар билан узвий боғлиқлигини эътироф этиш лозим. Ландшафт археологик таҳлилларда тадқиқотчи барча манбалардан фойдаланган ҳолда қадимда ландшафтларнинг аслида қандай бўлганлигини ва шу кунгача инсонлар томонидан ўзгартирилмай сақланиб келганлигини, шу билан бирга, улар томонида ўзгаришларга учраган ва янги пайдо бўлган антропоген ландшафтларни таҳлил этади. Бундай таҳлиллар натижасида қадим ва яқин ўтмишдаги инсоният тарихининг турли ижтимоий жиҳатларини ҳам тўлиқроқ ёритиш имконини беради. Тадқиқотларда археологик қазув ишлари билан узвий ҳолда тарихшуносликка доир манбалар ҳам алоҳида аҳамият касб этади.

Ландшафт археологик изланишларда тадқиқотчи учун инсон томонидан қолдирилган турли кўринишдаги барча ёдгорликлар бирдек муҳим аҳамият касб этади. Бунда қадимий аҳоли пунктлари, архитектура ёдгорликлари, қадимий ирригация қолдиқлари, қадимий йўллар, ижтимоий хўжалик билан боғлиқ бўлган ва шу билан бирга, маълум бир тарзда қадимий табиий ландшафтларга таъсир этган инсон омилига дахлдор бўлган барча ёдгорликлар камраб олинади. Ландшафт археологик таҳлилларда тадқиқотчи барча манбалардан фойдаланган ҳолда қадимда ландшафтларнинг аслида қандай бўлганлигини ва шу кунгача инсонлар томонидан ўзгартирилмай сақланиб келганлигини, улар томонида ўзгаришларга учраган ва янги пайдо бўлган антропоген ландшафтларни таҳлил этади. Бундай таҳлиллар натижасида қадим ва яқин ўтмишдаги инсоният тарихининг турли ижтимоий жиҳатларини ҳам тўлиқроқ ёритиш имконини беради.

Тадқиқотларда археологик қазув ишлари билан узвий ҳолда тарихшуносликка доир манбалар ҳам алоҳида аҳамият касб этади. Ёзма манбалар қаторида тарихчи, географ ва сайёҳларнинг қадимий қишлоқлар ва шаҳарлар кўриниши тўғрисидаги қизиқарли маълумотлар беради. Ана шундай манбалар қаторида қадимий ёзма манбалардан Авесто, антик давр Рим, юнон, хитой манбалари, ўрта асрларга келиб араб ва форс сайёҳлари, тарихчи ва географлари эсдаликлари, Ўзбекистон шаҳарлари ва аҳоли пунктлари ҳақида маълумот берувчи мемуар асарлар, эсдаликлар бугунги кунгача шаҳар ва қишлоқларнинг манзаралари қанчалик ўзгарганлиги ҳақида қизиқарли маълумотлар беради. Қадимий



ёзма манбалар қаторида уларга ишланган миниатюралар ўша давр ландшафтлари ҳақида тўлиқроқ ва аниқроқ маълумотларни тақдим этади. Чунки тасвир этилаётган манзаралар, бинолар, табиат, ўсимлик ва ҳайвонот дунёси мусаввир томонидан мавжуд борлиққа асосланган ҳолда берилишига эътибор қаратилган.

Жанубий Фарғона шаҳарлари ҳақида маълумот берувчи муҳим ёзма манбалардан бири З.М. Бобурнинг “Бобурнома” асари бўлиб, Ўрта Осиё, Афғонистон, Ҳиндистон ва Эрон халқлари тарихи, географияси, этнографиясига оид қимматли маълумотларни ўз ичига олади. Бобур томонидан таърифланган шаҳарлар қаторида Жанубий Фарғона шаҳарларининг географик жойлашуви, уларнинг қайси дарёлар суви билан таъминлангани, тоғлари, қишлоқ хўжалиги, ландшафтига доир маълумотлар келтирилади. Асарда Бобур “Фарғона вилояти бешинчи иқлимдандур. Шарқи Қошғар, ғарби Самарқанд, жануби Бадахшоннинг сарҳади тоғлар, шимолида агарчи бурун шаҳрлар бор экандур, мисли: Олмолиқ ва Олмоту ва Янги ким кутубларда Тарозкент битирлар... Мухтасар вилояттур, ошлиқ ва меваси фаровон. Гирдогирди тоғ воқе бўлубтур. Ғарбий тарафидаким, Самарқанд ва Хўжанд бўлғай, тоғ йўктур... Сайхун дарёсиким, Хўжанд Суйиға машҳурдур, шарқ ва шимолий тарафидин келиб, бу вилоятнинг ичи бирла ўтуб, ғарб сори оқар...” каби маълумотларни келтириб, вилоятнинг машҳур шаҳарлари ҳақида қуйидагича маълумот беради. “...Яна бири Марғиондур, Андижоннинг ғарбидадур, Андижондин етти йиғоч йўлдур. Яхши қасаба воқе бўлубтур, пур неъмат, анори ва ўруғи асру кўп хўб бўлур. Бир жинс анор бўлур, “дона калон” дерлари, чучуклигида зардолу майхушлиғидин андак чошни бор. Самнон анорларға таржеҳ қилса бўлур. Яна бир жинс ўрук бўлурким, донасини олиб ичиға мағз солиб қурутурлар, “субҳоний” дерлар, бисёр лазиздур. Ови куши яхшидур, оқ кийик ёвуқта бўлур... Фарғона вилоятининг гирдо-гирди тоғларида яхши яйлоқлари бор. Тобулғу йиғочи бу тоғларда бор, ўзга ҳеч ерда бўлмас. Тобулғу бир йиғочдур пўсти қизил, асо қилурлар, камчи дастаси ҳам қилурлар, тарош қилиб тиргаз қилурлар, ҳейли яхши йиғочдур... Бу тоғларда фируза кони ва темур кони бўлур” (7-8 бет).

Араб манбаларида келтирилган Қуйи Ниса шаҳарлари қаторида Жанубий Фарғонанинг яна бир шахри Қува тўғрисида “Бобурнома”да қуйидаги маълумотларни кўриш мумкин: “... Андижоннинг тўрт йиғочиди Қубога тушти... Қубонинг ботқоқлик қора суйи бор, кўпригидин ўзга ердин кечиб бўлмас...”.

Асарда келтирилган маълумотлардан кўринадики, қадимдан Жанубий Фарғона ўзининг географик жойлашуви жиҳатдан деҳқончилик, боғдорчилик учун қулай бўлган. Дарё ва тоғлардан оқиб келувчи сувлар эса қадимданоқ бу ерда суғорма деҳқончилик ривожига алоҳида аҳамият касб этган.

Хулоса ўрнида айтишимиз мумкинки, ўрта аср ёзма манбалари қаторида Жанубий Фарғона шаҳарлари ҳақида маълумот берувчи “Бобурнома” асари бугунги кунда ушбу ҳудуд ландшафт тарихини ёритишда муҳим аҳамият касб этади. Археологик изланишлардан қўлга киритилган маълумотларни солиштиришда хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Бобур З.М. Бобурнома. Т., 1989.
2. Peter Haupt. Landschaftsarchäologie. 2011.
3. Колчина Б.А. Археология и естественные науки. М., 1965.



ПАЛЕОЭТНОБОТАНИК АРТЕФАКТЛАР ТАЛҚИНИ ОРҚАЛИ ҚАДИМГИ АҲОЛИНИНГ ҲАЁТНИ ТАЪМИНЛАШ ТИЗИМИНИ ТИКЛАШ

Хатамова Мунира Маткаюмовна

Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори
(PhD), катта илмий ходим

ЎзР ФА Миллий археология маркази
“Биоархеология лабораторияси” мудири

Телефон: +998 90 912 86 44
khatamova.2014@yandex.ru

Аннотация. XIX юз йиллик бошларида юзага келган палеоэтноботаника фани археоботаникадан фарқли ўлароқ қадимги маданиятларда ўсимликларнинг роли ва ўрнини ўрганиш билан шуғулланади. Мақолада палеоботаниканинг асосий йўналишлари – ёзма манбалар, этнографик материаллар, археоботаник ва остеологик қолдиқлар тўғрисида қисқа тўхталиб ўтилган. Муаллиф палеоэтноботаника маълумотларини кенг қўллаш Ўзбекистон археологиясидаги кўплаб муаммоларнинг ечимига сабаб бўлишини илгари сурган.

Калит сўзлар: палеоэтноботаника, археоботаника, деҳқончилик, овқатланиш, ўсимлиқ қолдиқлари, биокимёвий таҳлил, изотоп таҳлили.

Дунёнинг илғор илмий марказлари ва олий ўқув юртларидаги антропология ва археология бўлимларида Биоархеология лабораториялари кенг қамровли изланишлар олиб бормоқда. Жаҳон илм-фанининг сўнгги ютуқлари, хусусан, биоархеология фанини Ўзбекистон фанига олиб кириш, бу соҳада мутахассислар тайёрлаш учун ЎзР ФА Миллий археология марказида “Биоархеология лабораторияси” очилган.

Ўтган юзйилликнинг сўнгги чорагида юзага келган биоархеология фани кўпроқ табиий фанларнинг энг сўнгги ютуқларига таянган ҳолда ўтмишда яшаган кишилар турмуши, озиқланиши, соғлиғини қайта тиклашга қаратилган фанлараро қиёсий изланишдир. Унда археологик қазилмалар чоғида қўлга киритилган барча турдаги органик қолдиқлар ўзига хос усулларда таҳлил ва талкин қилинади.

“Биоархеология” атамасининг қўлланилиши борасида турли қарашлар бор. АҚШ мутахассисларининг фикрича, у биргина инсон қолдиқларини ўрганиш учун, Европалик олимлар эса археологик қазилмалардан чиққан ҳар қандай биологик қолдиқлар (инсон, ҳайвон, ўсимлик қолдиқлари) учун қўлланилиши керак. Бордию иккинчи кўз қарашдан келиб чиқилса, палеоантропология ёки жисмоний антропология, палеопатология, зооархеология, палеоэтноботаника каби соҳалар ҳам биоархеология ичига кириб кетади.

Археологлар узок вақт давомида бирор қазилмадан чиққан ўсимлик ва ҳайвонларнинг қолдиқлари, овқат тайёрлаш учун ишлатилган идишлардаги қолдиқларга таяниб, ўтмишдаги аҳолининг овқатланиш рационини тиклашга уриниб келишган. Гарчи ушбу археологик топилмалар овқатланиш бўйича қандайдир тасаввурга эга бўлишга ёрдам берса-да, ҳайвон ва ўсимлик қолдиқларининг оддий талқини бирор-бир озиқ маҳсулоти ёки озуқа моддаларининг нисбий аҳамиятини баҳолашда тўғри маълумот бера олмайди. Бу эса аҳоли ёки жамоанинг овқатланиш ҳолати тўғрисида чекланган хулосалар чиқаришга олиб келади.

Бирорта археологик ёдгорликдан чиққан бир сиқим дон, бир неча хил мева данаги, турли ҳайвон суяклари лабораторияда ўрганилса, ўша ерда яшаган кишиларнинг овқатланиши ва ҳўжалик тарзини тиклса бўлади. Археологлар ва палеоэтноботаник олимлар ўтмишда кишиларнинг қандай қилиб омон қолганликларини ўрганар эканлар, кўпроқ шу томонларига эътибор қаратадилар.

Ўсимлик ва ҳайвонларнинг тўқималарини ўз ичига олган элементлар (углерод, азот, водород, кислород, стронций каби)нинг турфун изотоплар таҳлили ва стоматологик таҳлили инсоннинг ҳаёти давомида унинг овқатланиш рациони ва овқатланиш одатлари ҳақида, шунингдек, унинг географик мансублиги ва ҳаракати тўғрисида ҳам маълумотлар беради. Масалан, стронций ва скелет таркибидаги кислород элементларининг изотоп таҳлили



яшаш давомида кўчиб келган одамларни аниқлаш учун қўлланилади. ДНК таҳлили ҳам индивидуал, ҳам популяцион даражадаги генетик фарқларни баҳолаш усули ўлароқ тобора кенг оммалашмоқда.

Археологик қазилмалардан чиққан антропологик қолдиқлар таҳлили суякларнинг кимёвий таркиби асосида озуқа тизимини аниқлаш учун ҳам қўлланилади. Изланувчилар суяк тўқимасининг кимёвий таркибини таҳлил қилишда изотоп таҳлили ва атомли-абсорбцион таҳлил каби усулларни қўллайдилар. Ўтмишда одамларнинг асосан эт емас (вегетариан)лар бўлганми ёки этли озукаларни ёқтиришганми, улар қандай касалликлар билан оғриганлар каби кўплаб саволларга илмий жавоб топишда бу иккала усул қўл келади. Стоматологик таҳлил ҳамда ўсимлик ва ҳайвон тўқималаридаги элементлар (углерод, азот, водород, кислород, стронций каби)нинг турғун изотоплари таҳлили овқатланиш рационини ва инсон умри давомидаги овқатланиш одатлари, шунингдек, унинг географик мансублиги ҳамда ҳаракати тўғрисида ўта муҳим маълумотларни бера олади.

Археологик қазилмалар вақтида чиққан суяк изотопларини ва элементар таркибий қисмларининг турғун нисбатларини ўлчаш ўтмишдаги одамларнинг овқатланишини тавсифлашга сезиларли ёрдам беради. Шунинг учун, археологик суяк қолдиқларидаги изотопларни таҳлил қилиш ва овқатланиш рационини қайта тиклаш бўйича кенг қамровли изланишлар бажарилган.

Олимлар турли таркибий қисмлар билан бир қаторда суяклар ва тишларда турли хил элементларнинг турғун изотоплари, масалан, углерод (^{12}C , ^{13}C) ва азот (^{14}N , ^{15}N) изотоплари борлигини тушуниб етишган. Бундан ташқари, кундалик инсон озуқаси бўлмиш ўсимликлар ва ҳайвонлардаги изотоп вариациалари инсон тўқималари, суяклари ва тишларида ўз аксини топади. Археологлар узоқ вақт давомида бирор қазилмадан чиққан ўсимлик ва ҳайвонларнинг қолдиқлари, овқат тайёрлаш учун ишлатилган идишлардаги қолдиқларга таяниб, ўтмишдаги аҳолининг овқатланиш рационини тиклашга уриниб келишган. Гарчи ушбу археологик топилмалар овқатланиш бўйича қандайдир тасаввурга эга бўлишга ёрдам берса-да, ҳайвон ва ўсимлик қолдиқларининг оддий талқини бирор-бир озиқ маҳсулоти ёки озуқа моддаларининг нисбий аҳамиятини баҳолашда тўғри маълумот бера олмайди. Бу эса аҳоли ёки жамоанинг овқатланиш ҳолати тўғрисида чекланган хулосалар чиқаришга олиб келади.

Ўрта Осиёдаги кўпгина археологик ёдгорликларда ўсимлик қолдиқлари турли кўринишларда – кўмир, куйган уруғлар ва мевалар, ёғоч, сопол, ғишт, сувоқ ва турли иншоотлар полидаги ўсимлик қисмларининг излари, ҳайвон гўнги сақланиб қолган. Палеоэтноботаниклар ана шу ўсимлик қолдиқларини ажратиб олиб, уларни лаборатория шароитида ўрганади ва интерпретация қилади.

Палеоэтноботаник мутахассис лаборатория маълумотларини ёзма манбалар, этнографик ўхшашликлар, маданий таққослашлар ва археологик контекстдан олинган турли хил археоботаника маълумотлари билан, шу жумладан, ўсимликлардан ясалган қадимий ҳунармандчилик маҳсулотлари, сопол идишлар ёки лой ғиштлардаги уруғ ва ўсимлик излари, инсон палеофекалиясида ёки сақланиб қолган жасадларнинг ошқозонидаги ўсимлик қолдиқлари, шунингдек, ўсимликларни ўстириш ва уларга ишлов бериш учун ишлатилган асбоблар ёки артефактлар – қайроқ тошлар, қишлоқ хўжалиги асбоблари, ёғочга ишлов бериш асбоблари, қазилма таёқлари кабилар билан бирлаштириб ўрганиши талаб этилади.

Эндиликда Ўзбекистонда ҳам ботаник, археологлар ва умуман ижтимоий-гуманитар фанлар билан табиий фанлар мутахассисларининг ўзаро яқин алоқаларини йўлга қўйиб, жаҳондаги янги фан йўналишларини тадбиқ этиш зарурати аллақачон туғилган. Шундан келиб чиқилса, бу йўналишда замонавий асбоб-ускуналар ва техник жиҳозлар билан таъминланган лабораториялар ва уларда ишлай оладиган мутахассис кадрлар масаласи кўндаланг бўлади. Мана шу муаммолар ўз ечимини топсагина, Ўрта Осиё ва Ўзбекистон ўтмишини тўлақонли ва ишончли очиб беришга эришса бўлади.



Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Integrating Zooarchaeology and Paleoethnobotany: A Consideration of Issues, Methods, and Cases. Eds. A.M. VanDerwarker and T.M. Peres. New-York – Dordrecht – Heidelberg – London. Springer Science+Business Media, LLC. 2010.
 2. Larsen C.S. Bioarchaeology: The Lives and Lifestyles of Past People // Journal of Archaeological Research, Vol. 10, No. 2, June 2002. – P. 119-166.
 3. Method and Theory in Paleoethnobotany edited by John M. Marston, Jade d'alpoim Guedes, and Christina Warinner. University Press of Colorado, 2014.
 4. Pearsall D.M. Paleoethnobotany: A Handbook of Procedures. 3rd ed. Left Coast Press, Walnut Creek, CA, 2015.
 5. Сатаев Р.М., Сатаева Л.В. Палеоэтноботаника и палеоэтнозоология в системе знаний об экологии древних обществ // Этнос и среда обитания. Сборник статей по этнической экологии. Вып. 5. Исследования систем жизнеобеспечения / Отв. ред. Н.А. Дубова. – М.: Старый сад, 2017. – С. 47-58.
- Хатамова М.М. Биоархеология ва унинг тадқиқот усуллари // O‘zbekiston arxeologiyasi. – № 3. – 2020. – 45-58-бетлар.



TARIX FANINI O‘QITISHDA INTEGRATSION YONDASHUV

Amonova Nafisa Komilovna
Navoiy viloyati Qiziltepa tuman
15-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
tarix fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarix fanini o‘qitishda integratsion yondashuv, uning ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: integratsion yondashuv, muammo, “Chigil yozdi”, tavsif...

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng ta’lim sohasini tubdan isloh qilishga juda katta e’tibor qaratildi. Shu yo‘lda ko‘plab qonunlar, qarorlar, nizom va dasturlar hayotga tadbiiq etildi. Maktab ishi uchun eng muhim hujjatlardan biri bo‘lgan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning milliy modelidagi bosh muddao – bu komil inson tarbiyasi, mustaqil fikrlovchi ijodkor shaxsni tarbiyalash masalasidir. Shu bois biz pedagoglar katta mas’uliyatni sezgan holda o‘z ishimizga jiddiy yondashmog‘imiz lozim. Shu sababli har bir darslarni innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Quyida shunday o‘yin va usullardan bir nechasini tushuntirishni joiz topdim. O‘ylaymanki, bu usul va o‘yinlar tarix darslarini tashkil etishda oz bo‘lsada qo‘llanma vazifasini bajaradi.

“Muammo”usuli.

Bu usulda mavzuga tegishli biror narsa, hodisa muammo qo‘yib qo‘yiladi. Bunda masalan, “Meva solgan daraxt” misolidagi ko‘rgazmali qurollardan foydalanish mumkin. Bunda oldindan rasmi daraxt va uning mevalari tayyorlab qo‘yiladi. Dars jarayonida javob beradigan o‘quvchi ushbu mevalardan birini olishga muyassar bo‘lishi uchun uning orqa tomonidagi savolga javob bera olishi shart. Bunda tarix darslari bevosita **botanika, tabiatshunoslik** fanlari bilan bog‘lanadi.



“Kim chempion” o‘yini. Bu o‘yin orqali tarix darslari sport bilan bog‘lanadi. Bunda o‘quvchilarga darsda bergan to‘liq javobi uchun “Oltin medal”, o‘rtacha berilgan javob uchun “Kumush medal” hamda qoniqlarli javob uchun “Bronza medali” bilan taqdirlanadi.

“Chigil yozdi” metodi

Dars boshlanishida bu usul darsga o‘quvchilarni ruhiy tayyorlash va dars yarmida o‘quvchilar diqqatini darsning keyingi bosqichiga chorlash uchun qo‘llaniladi. O‘qituvchi she’rlardan parcha aytishi, hazil savollar berishi, mashqlar bajarishi, ko‘pincha qiziqarli o‘yinlar tashkil etishi mumkin.

“O‘zingni sinovdan o‘tkaz” metodi.

Har bir guruh ushbu fandan olgan taassurotlari, bilim va malakalarini sinovdan o‘tkazish maqsadida “O‘zingni sinovdan o‘tkaz” toshirig‘i asosida o‘tilgan mavzularga aqliy hujum asosidagi tezkor savol-javoblarga javob berishlari aytiladi.

“Buyuk siymolarga tavsif” metodi.

Bunda oldindan o‘quvchilarga buyuk siymolar A.Temur, Jalolliddin Manguberdi (boshqa shoirilar, allomalar ham berilishi mumkin) hayoti, ijodi va faoliyati borasida chuqur izlanib, ularga tavsif berishlari lozim.





“O‘z xotirangni sinovdan o‘tkaz” metodi.

Bunda o‘qituvchi o‘z mavzularidan kelib chiqib, qog‘ozga berilgan topshiriqni (shoirlar nomi yoki asarlarini, raqamlarning nomini) eslab qolish asosida to‘g‘ri va xatosiz yozishlari lozim.

Mozaika usuli

tan	saj	bi	dir
goh	va	da	ka
das	qad	mu	

Kalit so‘z: Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir.

Xullas, yuqorida keltirilgan metodlarni turli xildagi o‘yinlar orqali davom ettirish mumkin. Shuni unutmagan holda har bir darsni fanlararo bog‘liqlik asosida tashkil etish barchamizning asosiy vazifamizga aylanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. T., “Iqtisodiyot”, 2012-y.
2. “Umumta‘lim fanlari metodikasi” jurnali, 1-, 2-sonlar, 2018-y
3. 3.Internet saytlari.



TARIX FANINI O‘QITISHDA MADANIY YODGORLIKLARNI O‘RGATISHNING AHAMIYATI

Qo‘ziyeva Mohigul Zoirovna
Navoiy viloyati Qiziltepa tuman
15-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
tarix fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarix fanini o‘qitishda madaniy yodgorliklarni o‘rgatishning ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: interfaol, madaniy yodgorliklar, noyob, turizm infratuzilmasi ...

O‘zbekiston noyob bir mamlakat bo‘lib, uning hududida eng qadimgi tamaddun va madaniyatlar yuzaga kelgan, rivojlangan, o‘z jozibadorligi jihatidan dunyodagi dam olish va sayohatlar uchun eng yaxshi maskanlardan qolishmaydigan ulkan turizm salohiyatiga egadir. Bugungi kunda mamlakatimizda 7 mingdan ziyod nodir tarixiy yodgorliklar shu jumladan, 2500 ta me‘moriy obida, 2700 tadan ortiq monumental san’at asari davlat muhofazasiga olingan. Shunga qaramay, O‘zbekistonning turizm infratuzilmasi, turizm xizmatlari sifati va uning darajasi, shuningdek tarmoqni boshqarish tizimi globallashuv va keskin raqobat sharoitida zamonaviy talablarga mos kelmaydi. Turizmning mamlakat iqtisodiyotiga qo‘shayotgan hissasi, xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish va aholini ish bilan ta’minlash jahondagi o‘rtacha ko‘rsatkichlardan orqada qolmoqda. 2017-yilning 1-aprelidan boshlab 15 ta davlat, shuningdek 55 yoshga to‘lgan va turizm maqsadida 30 kundan ortiq bo‘lmagan muddatga keluvchi 12 davlat fuqarolari uchun viza rejimi butunlay bekor qilinadi; barcha mamlakatlar uchun 2018-yildan boshlab elektron vizalar tizimi joriy etiladi.


Madaniy yodgorliklarimizga munosabat qanday edi?

KECHA		BUGUN
 Gʻori Amir maqbarasi	Biz ilgari sobiq Ittifoq tarkibida edik, biz dunyoga, dunyo bizga yopiq edi. O‘sha davrda O‘zbekistonga mehmon bo‘lib keladigan odamlarni qayerga olib borishni ham Markaz hal qilar edi. Boy tariximiz, ulug‘ mutafakkirlarimiz haqida lom-lim deyilmas edi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov	 Gʻori Amir maqbarasi
 Imom Buxoriy maqbarasi		 Imom Buxoriy maqbarasi
 Qaffol Shoshiy maqbarasi		 Qaffol Shoshiy maqbarasi

Quyidagi usullar asosida o‘quvchilarga tarix fanini o‘qitishda madaniy yodgorliklarni o‘rgatishning ahamiyati yordam beradi.



Mini test.			
Me'moriy obidalar	Samarqand	Buxoro	Xiva
Registon maydoni	+		
Arkqal'asi		+	
Ichan qal'a			+
Pahlavon Mahmud maqbarasi	+		
Somoniylar maqbarasi			
Shohi Zinda ansambli	+		
Bibixonim madrasasi		+	
Dishan qal'a		+	
Go'ri Amir maqbarasi	+		



“Rekord” usuli.

Bu usulni qo'llash orqali dars jarayonida o'tilayotgan, mavzu bo'yicha rekord darajadagi noyob ma'lumotlarni juda ko'p miqdorda berish nazarda tutiladi. Bunda o'quvchilar o'zlari mavzu bo'yicha mustaqil izlanadi, darslikda yo'q ma'lumotlarni topadi va dars jarayonida tengdoshlariga taqdim etadi. Buning uchun o'quvchilarga mavzu oldindan beriladi.

Masalan: Amir Temur haqida ma'lumotlarni quyidagicha tashkil etilishi mumkin.





Oldimizda turgan asosiy vazifalardan biri har bir o‘quvchiga puxta va chuqur bilim berish, tarix faniga qiziqishini oshirish, ularning har tomonlama rivojlanishlarini ta’minlashdan iborat. Bu hol o‘qitish metodlarini yanada takomillashtirishni talab etadi. O‘qitishda o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish o‘quvchilarning ongliligi va faolligini ta’minlash bilan uzviy bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Ma’rifat” gazetasi 2017- yil, 5-son
- 2.Darsliklar bo‘yicha metodik qo‘llanmalar
- 3.Internet saytlari.



АМИР ТЕМУР ВАФОТИДАН КЕЙИНГИ СИЁСИЙ ВОҚЕЙЛИКЛАР ЖАРАЁНИДА БУХОРО

Кучаров Жамшид Кулназарович

ҚаршиДУ, Ўзбекистон тарихи кафедраси ўқитувчиси.

Телефон: +998919481677

Аннотация: Ушбу мақолада Соҳибқирон Амир Темур ўз ҳукумронлиги даврида улкан салтанат тузиб, унинг марказий минтақаси, ўзаги сифатида Мовароуннаҳни ҳар жиҳатдан тараққий эттиришга ҳаракат қилганлиги билан бирга, мамлакатнинг марказий шаҳарлари Самарқанд, Шаҳрисабз, Тошкент ва бошқа шаҳарлар сингари Бухорони ҳам салтанат таянчига ҳамда Самарқанддан сўнг иккинчи шаҳарга айлантиришга ҳаракат қилганлиги, темурийлар ўртасида тат учун курашда Бухоро воҳасининг роли хусусида тўхталиб ўтилган.

Калит сўзлар: Мин сулоласи, ворис, васият, доруға, таянч кўрғон, Пирмуҳаммад Мирзо, Шайх Нуриддин, Шоҳмалик.

Тарихий манба ва адабиётларда Амир Темур Хитой (Мин сулоласи)га қарши ҳарбий юришни амалга ошириш ва ўзидан сўнг тахтга набираси Пирмуҳаммад Мирзони ўтказишни васият қилганлиги ва бу хусусда лашкарбошилариининг ваъдаларини олганлиги билан боғлиқ маълумотлар ёзиб қолдирилган [7:296]. Аммо, кейинги воқеъеликлар Амир Темур ворисларининг ушбу васиятга амал қилмай ўзаро курашлар гирдобига тортилганлигини кўрсатади. Шунингдек, турли лашкарбошилариининг ҳам ўз манфаатлари йўлида темурийлардан ҳокимият учун курашаётганларининг бири томонида туриб, зиддиятларни авж олдирилганлигини ҳам кўришимиз мумкин.

Амир Темур васиятига амал қилиш ва қонуний валиаҳдга садоқат изҳор қиладиган лашкарбошилар ҳам бўлиб, Амир Темур вафотидан кейин Тошкентда турган қўшинларининг бир қисми Пирмуҳаммад Мирзога садоқатларини изҳор қилганлар. Ушбу қўшинлар ўз садоқатларини мактуб орқали Аввал Самарқанд ва кейин Бухорога кетган Амир Темурнинг энг талантли лашкарбошиларидан ҳисобланган Шайх Нуриддин ва Шоҳмаликка юборадилар. Аммо, тарихий воқеъеликлар ушбу лашкарбошилариининг ҳам ўзаро курашлар гирдобига тортилганлигини ва бўлажак ҳукумдор олдида юқори мартабаларга эришиш йўлида давлат манфаатларидан ўз манфаатларини устун қўйганликлариини кўрсатади. Шайх Нуриддин ва Шоҳмаликлар ўзлари билан Мирзо Улуғбек ва унинг укаси Иброҳим Султонларни олиб Бухорога келгандилар. Улар ушбу шахзодалардан ўз манфаатлари йўлида фойдаланишга уринадилар ва Тошкент қўшинларидан келган хабарни валиаҳд Пирмуҳаммадга юборишлари керак эди, аммо, улар 1405 йил март ойида ҳам чопарни Бухорода тутиб турадилар[2:23]. Натижада давлат яхлитлигига путур етишида ушбу лашкарбошилариининг ҳам айбдор деб ҳисоблашга тўла асослар етарли.

Шайх Нуриддин ва Шоҳмаликлар Самарқандга кириш ва марказий ҳокимиятда мустаҳкам мавқега эга бўлиш мақсадида бошқалардан олдинроқ пойтахтга қараб йўлга чиққандилар. Аммо, улар Алиобод қишлоғида туриб қоладилар. Самарқанд доруғаси уларни ичкарига киритмайди. Шайх Нуриддин ва Шоҳмаликлар Самарқандга кира олмагандан сўнг Улуғбек ва Иброҳим Мирзоларни олиб, Халил Султонга хиёнат қилган Рустам Барлос билан бирга ўзлари учун таянч марказ бўлишини кўзлаб Бухорога йўл оладилар. Чунки, Рустам барлоснинг укаси Бухорода ҳоким бўлиб, режага кўра улар ёки Пирмуҳаммад ёки Шоҳрух Мирзо билан қўшилишлари керак эди. Аммо, воқеалар ривожини шуни кўрсатадики, узок иккиланиш ва ҳаракатсизлик натижасида Рустам барлос Бухорода яна бир бор хиёнат қилиб, Шоҳмалик Шоҳрух олдида ёрдам сўраб кетганидан фойдаланиб кўзғолон қилиб, хазинани талаб Халил Султон олдида кетади[2:25].

Академик В.В. Бартольд Шайх Нуриддин ва Шоҳмалик Бухорога келишидан асосий мақсадлари Халил Султонга олий ҳокимиятни эгаллашига қаршилиқ қилиш эди деган фикр-мулоҳазаларни келтириб ўтади. Шунингдек, Шайх Нуриддин ва Шоҳмаликларга қўшилган Рустам Барлосни Халил Султон қўшинининг авангарди бошлиғи сифатида келтириб ўтади. Бухоро томонга йўл олинишининг сабаби сифатида мустаҳкам таянч кўрғон ва қўллаб-қувватловга эришиш деб баҳолайди[3:75].

Тарихий манба ва адабиётлардаги маълумотлар таҳлили шуни кўрсатадики, Амир Темур



вафотидан сўнг бир ойга яқин мамлакатда ҳукумдорнинг бўлмаслиги аҳолини ташвишга солади. Шунингдек, хавотир оддий аҳолидан токим шахзодаларга қадар бўлган барчани камраб олганди. Халил Султоннинг Самарқандга кириши жараёнида Шохмалик ва Шайх Нуриддинлар Бухорода эҳтимолий ҳужумга қарши мудофаа чораларини кўрадилар. Улар Бухорога Амир Темур хазинасининг бир қисmini келтирган. Ўзларидан олдинроқ Бухорога ишончли бекларидан бири бўлган Рустам Тоғай Буға Барлосни юбориб, Халил Султонга қарши муҳолифатчилар учун зарурий жиҳозларни тайёрлаш топширилганди. Бухорога келиш вақти милодий йил ҳисобида 1405 йил 6 март куни содир бўлганлигини Шарафиддин Али Яздий маълумотларида келтириб ўтилганлигини кўриш мумкин[7:305].

Халил Султонга муҳолиф бўлган амирлар Шайх Нуриддин ва Шохмалик Амир Темур васиятини бажариш баҳонасида Халил Султонга қарши бўлган кучларни Бухорода тўплашга ҳаракат қилганлар деб хулоса қилиш учун асослар етарли. Ўз исёнларига қонуний тус бериш мақсадида Улуғбек ва Иброҳим Мирзолардан фойдаланишга ҳаракат қилганлар. Бухоро шаҳарини мудофаа қилиш режаси тузилиб, Шаҳар бозори ва унинг атрофлари мудофаси Шохмалик ва Улуғбек Мирзога, қалъа деворларини Шайх Нуриддин ва Иброҳим Султонлар кўриқлаши керак эди. Шунингдек, Рустам Барлос, иниси Ҳамза, Аталмиш ва Тўқал Қарқара каби исёнчи беклар шаҳар дарвозаларини кўриқлашга масъул қилиб белгиланган. Тарихчи олим Эм.Ф. Вульффертнинг ёзишича, Бухоро Амир Темур даврида йирик шаҳарлардан бири бўлган. У катталиги бўйича Самарқанддан қолишмаган, арк девори баландлиги 12 метрни ташкил этиб, шарқ ва ғарб томонида икки дарвозаси бўлган. 1405 йилда темурий шахзодалар Халил Султонга қарши мудофаа жараёнида шаҳарни икки қисмга бўлиб олганлар. Ғарбий қисм ва шу томондаги дарвозаларни Регистон майдони ҳудудларини Иброҳим Султон, Шарқ томон масжиди Калон ҳудудлари мудофаси Мирзо Улуғбек зиммасига тушади[5:61].

Бухорода мудофанинг ташкил этилишининг асосий сабабларидан бири бу Хуросоннинг яқинлиги ва Шохруҳ Мирзонинг мададга етиб келишига умидворлик нуқтаи-назаридан бўлган деб асослаш мумкин. Шаҳар мудофаа режаси, ва шахзодаларнинг ҳақиқий аҳволи, шунингдек, ҳарбий мадад сўраш мақсадида Шохмалик Бухородан Шохруҳ Мирзо олдига бориб, Улуғбек, Гиёсиддин Мирзо, Иброҳим Султонларнинг ҳақиқий аҳолини айтганлиги тарихий манбаларда келтириб ўтилади[1:51].

Тарихий адабиётлардаги маълумотлар таҳлили Халил Султонга қарши муҳолифат тарафдорлари дадил ҳаракат қилмаганликлари, ўзаро ишонч етарли бўлмаганлигига оид хулосалар чиқариш имконини беради. Француз Л.Керен ҳам Улуғбек ва Иброҳим Султонларнинг Бухорога келиши, ўзаро кураш жараёнлари, Бухорода фитна мавжудлигидан хавфсираб Хуросонга кетиш жараёнларига алоҳида тўхталиб ўтганлигининг гувоҳи бўлиш мумкин[6:176].

Академик В.В. Бартольд маълумотларида Халил Султонга муҳолиф бўлганлар орасида ўзаро ишонч мавжуд бўлмаганлиги, ўзаро рақобат ва келишмовчиликлар бўлганлигини ёзиб қолдирган. Шунингдек, Шайх Нуриддин ва Шохмаликларнинг рақобати, келишмовчиликлари улардан қуйи поғонадаги зобитлар ва Бухоро аҳолиси ўртасида ҳам хавотир уйғотган. Юқори мартабали лашкарбошиларга ишонч йўқолган. Натижада, мудофанинг мувоффақиятли чиқишига, шунингдек, Шохруҳ Мирзонинг ёрдамга келишига ишончлари бўлмаганлиги сабабли, Рустам Барлос ва унинг укаси Ҳамза бошчилигида Бухоро аҳолиси кўзғолон кўтаради. Улар қайтадан Халил султонга садоқат билдирадилар. Кўзғолончи раҳбарлар тинч аҳолини қуроллантирадилар. Кўзғолончилар хазинани қўлга киритади ва Шохруҳ Мирзонинг фарзандлари Улуғбек, Иброҳим Мирзолар Шайх Нуриддин билан биргаликда Хуросон томонга қочиб қўтилади[4:51]. Шохмалик бу вақтда Хуросон томондан Бухорога келаётган бўлиб, шахзодалар ва Шайх Нуриддинни йўлда учратганлигини В.В. Бартольд ёзиб қолдирган[3:78]. Шу тариқа Бухорода Амир Темур вафотидан кейин сиёсий воқеяликлар ва дастлабки исён ҳаракати якунига етади. Бухоро бундан кейин темурийлар салтанатидаги сиёсий жараёнларда янада кўпроқ иштирок эта бошлади. Бу ўз навбатида Нақшбандийликнинг Мовароуннаҳрда кенг аҳоли қатлами орасида тарқалиши ва Бухоро уламоларининг таъсирини ошиб бориши билан ҳам боғлиқ деб ҳисоблаш мумкин. Чунки тахт учун курашларда Бухоро уламоларининг қўллаб-қувватлаши тобора ҳал қилувчи аҳамият касб эта бошлаган.

Халил Султоннинг ҳокимиятдан четлатилишида ҳам Бухоро уламоларининг таъсири ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлганлигини тарихий манба ва адабиётларда келтириб



ўтилганлигининг гувоҳи бўламиз. Жумладан, А.Аҳмедов Халил Султоннинг Бухородаги Нақшбандия пирларидан бўлган Муҳаммад Порсо билан муносабатлари ёмонлашгач, бу тариқат вакиллариининг Шохруҳ Мирзо томонга ўтиб кетиши натижасида кейинчалик Халил Султон тахт учун курашларда мувоффақиятсизликка учраганлигини келтириб ўтади[2:29]. Ҳатто, В.В. Бартольд ҳам Халил Султоннинг Мовароуннаҳрда таъсириининг пасайишида Нақшбандия уламоларининг таъсири катта бўлганлигини, улар Шохруҳ мирзо билан доимий алоқада бўлганлиги хусусида тўхталиб ўтади. Жумладан, Нақшбандия пирларидан бўлган Муҳаммад Порсо Шохруҳни қўллаб-қувватлагач, тезда орада Халил Султон мағлуб бўлганлигига оид маълумотларни ёзиб қолдирган[4:61].

Хулоса қилиб айтганда, Амир Темур вафотидан сўнг тахт учун курашларнинг биринчи ўринга чиққанлиги, темурийларнинг умумий бир мақсад ва ғоя атрофида бирлашмаганлиги, ўзаро курашлар гирдобига тортилганлигини кўрамиз. Ўзаро курашларда Бухоро муҳим аҳамият касб этган бўлиб, унинг темурийлар даври сиёсий ҳаётида таъсири тобора ошиб борди. Улуғбек ва Иброҳим Мирзоларнинг Бухорода марказий ҳокимият учун кураши мағлубият билан тугаши, Амир Темур вафотидан кейинги дастлабки воқеяликларнинг мантиқий якуни бўлди деб ҳисоблаш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Абдураззоқ.Самарқандий. Матлаи Саъдайн ва мажмаи баҳрайн. К. II. /Абдураззоқ Самарқандий; Форс тилидан тарж., сўзбоши ва изоҳлар муаллифи А.Ўринбоев; Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси, Абу Райҳон Беруний номидаги шарқшунослик институти. – Т.: O'zbekiston, 2008.
2. Аҳмедов А. Улуғбек (Ҳаёти ва фаолият). – Т.: Фан, 1991.
3. Бартольд В.В. Сочинения. Работы по отдельным проблемам истории Средней Азии. Том II. Часть 2. – М.: Наука, 1964.
4. Бартольд В.В. Улугбек и его время. Петроград. 1918.
5. Вульферт. Эм.Ф. Бухарская провинция в составе государства Амира Темура// Маверауннахр в эпоху Амира Темура: археология, история, культура. – Т.: 2018.
6. Керен Л. Амир Темур салтанати//француз тилидан тарж ва изоҳлар муаллифи: Б.Эрматов; Махсус муҳаррир: Х.Султонов; Сўз боши: Луи Базен/. – Т.: Маънавият, 1999.
7. Йаздий Шарафуддин Али. Зафарнома //Сўз боши, табдил ва кўрсатгичлар муаллифи ва нашрга тайёрловчилар: А.Аҳмад, Ҳ.Бобобеков; Масъул муҳаррир Б.Эшпўлатов, Нашрлар ва матбаачилар гуруҳи: И.Шоғуломов ва бошқалар//. – Т.: Фан, 1997.



ҒАРБИЙ ТЯН-ШАН ТОҒЛАРИДАГИ ЯНГИ ҚОЯТОШ РАСМЛАРИ

Мухтаров Гайратхон Арсланович

ЎзР ФА Миллий археология маркази

“Ландшафт лабораторияси” кичик илмий ходими

Телефон: +998 936682296

gayratxon75@mai.ru

Аннотация. 2020-2021 йилларда Ғарбий Тянь-Шан тоғларидан аниқланган Қизилдара қоятош расмларининг замонавий услубларда ўрганилиши ёритилган. Хусусан, қоятош расмлари орасида ҳайвон тасвирлари билан бирга суғдий ёзув ва тамғаларнинг ҳам учраши эътиборга молик.

Калит сўзлар: Ғарбий Тянь-Шан, Хўжакент ва Қорақиясой, Чотқол тоғ тизмаси, Польша, Ўзбекистон, “Қизил дара”, «Қанқа экспедицияси», «Нав-фарн», Чоч.

Қоятош расмлари дунёнинг барча жойларида маълум бўлиб, палеолитдан то ўрта асрларгача бўлган даврга оиддир. Қоятош расмлари аввало, санъат обидаси сифатида санъат тарихини, археологик ва тарихий манба сифатида эса ибтидоий ва қадимги қабилаларнинг ижтимоий ҳаёти ва руҳий оламини ўрганишда катта аҳамиятга эга.

Ғарбий Тянь-Шан водийсидаги Чирчик воҳасидан Хўжакент, Оқтош каби палеолит даври ёдгорликлари ҳамда улар яқинида бронза ва ўрта асрларга оид ёдгорликлар аниқланган. Бу ерда тадқиқотлар 1960 йилларда бошланган ва қоятош суратлари ўша йиллардаёқ аниқланган. Хўжакент ва Қорақиясой суратларини синчиклаб ўрганиш ишлари 1979-1983 йилларда М.М. Хўжаназаров томонидан амалга оширилган. Бу ердаги қоятош суратларини тадқиқ қилиш умумий қабул қилинган услублар асосида ўрганилган.

Маълумки, қоятош суратларини маданий-тарихий объект сифатида ўрганиш учун қуйидаги ишлар амалга оширилади: суратлар даставвал устига калка қоғоз қўйилиб, қалам билан кўчириб олинади; сўнгра уларга тавсиф берилади, таснифланади ва санаси аниқланади, энг охирида этномаданий ҳамда мазмуни жиҳатидан талқин қилинади.

Ғарбий Тянь-Шандаги Хўжакент ва Қорақиясой суратлари жойлашган ҳудудларнинг физик-географик шароитлари қадимдан овчилик, чорвачилик каби хўжаликларни юритиш учун қулай бўлган.

Кишилиқ жамияти тарихий тараққиёти ва маданияти тизимида қоятош расмлари – одамзоднинг санъати, диний эътиқоди, кундалиқ турмуш тарзи, хўжалиқ юмушлари, машғулотлари ва маънавий кечинмаларини тасаввур қилишда муҳим бўлган бирламчи манбалардан ҳисобланади.

Жаҳоннинг етук илмий марказлари билан тарихий-маданий ёдгорликларни ўрганишда ҳамкорлик ишлари йўлга қўйилди ва бунда ЎзР ФА Археология институтининг илмий фаолияти устувордир.

Чотқол тоғ тизмасида аниқланган янги қоятош расмлари инсоният тарихий тараққиётининг бронза, илк темир (сак-скиф), ўрта асрлар даврида ушбу ҳудудда яшаган овчи ва кўчманчи дашт чорвадор халқларнинг ижтимоий-иқтисодий, маданий, маънавий, диний ва хўжалиқ ҳаётини ўрганиш ҳамда Ўзбекистон тарихида тутган ўрнини аниқлашдан иборат.

Чотқол тоғ тизмаси ҳудудида қоятош расмлари ёдгорликлари тарқалиш географиясини ўрганиш ҳам ўзига хос тарзда аҳамиятга молик. Шунингдек, мазкур ҳудуддаги янги қоятош расмларини замонавий тадқиқот усуллари асосида классификация қилиш (таснифлаш) ва бунда қоятош расмларининг яратилиши усуллари, техникаси, композицион мазмуни ва уларнинг тарихий манба сифатида ўрни масаласини аниқлаш, тадқиқ қилинаётган қоятош расмлари ёдгорликларини ҳар бир тарихий тараққиёт босқичига оид тасвирларнинг ўзига хос хусусиятлари, расм солиниш техникаси, услуби, куёшда қуйиши каби жиҳатларини ҳисобга олган ҳолда даврлаштириш, уларнинг даврий маданий чегараси ва хронологиясини аниқлаш, қоятош расмлари ёдгорликларини Ўзбекистон билан қўшни ҳудудлар қоятош расмлари билан қиёсий таққослаш ва шу асосда ўзаро ўхшашлик, маданий яқинлик ҳамда ўзига хослик хусусиятларини аниқлаштиришдан иборат.

Чотқол тоғ тизмасидаги Қизил дара қоятош расмлари 2019 йилда Польша – Ўзбекистон қўшма экспедицияси томонидан аниқланган. 2021 йил давомида ушбу экспедиция ўз



ишини давом эттириб, кўплаб қоятош расмлари ўрганилди. Қизил дара худудидаги қоятош расмларини аниқлаш, ортофотоплан, тахеометр ёрдамида ҳар бир қоятош панелларининг метрик маълумотларини жамлаш, рангли рақамли шкалалар асосида расмларга олиш, 50 дан ортиқ панелларнинг 3D-моделини яратиш орқали уларнинг таҳлили учун кўплаб ишлар амалга оширилди. Шунингдек, Инновация вазирлиги ходимлари билан ҳамкорликда дрон ёрдамида қоятош расмлари харитаси тузилди.

Жами Қизил дара худудидаги 350 тош юзасидан 4000 га яқин қоятош расмлари аниқланди ҳамда сюжет таҳлил ишлари олиб борилмоқда. Энг қизиғи шундаки, топилган қоятош расмлари асосан денгиз сатҳидан 2500 метрдан 3100 метргача бўлган баландликларда учраши тасодиф эмас. Юқорида келтирилган маълумотларга асосан айнан бундай баландликда дарахт ва буталарнинг ўсмаслиги ҳисобига ўша давр аҳолисининг ўз мулкларини назорат қилиши, чорвани кузатишлари учун хизмат қилган жиҳат деб қараш мумкин.

2021 йилнинг сентябрида ЎзР ФА Миллий археология маркази “Қанқа экспедицияси” илмий ходимлари иштирокида денгиз сатҳидан 2900 метр юксакликдаги Ғарбий Тангритоғ (Тян-шан)нинг жануби-ғарбий тизмаларидаги Музбел довонининг «Кўкшашир» дарасида қоятош сураглари топиб ўрганилди. Бу ерда бир неча тоғ эчкиси тасвирлари билан бирга 1 сатрлик суғдий ёзув борлиги аниқланди. Ойнада кўрилганда тўғри ўқиладиган 5 та ҳарфдан иборат ушбу ёзув Марказнинг етакчи илмий ходими Ғ. Бобоёров томонидан суғдий тил ва ёзув асосида *nwprn* «Нав-фарн» («Янги қут (эгаси)» деб ўқилди. (1-расм)

Шунингдек, ушбу изланувчилар бу ёзувнинг *nprn* «Наф-фарн» деб ҳам ўқилиши мумкин эканига урғу беришди. *pr* «Наф» сўзи суғдий тилда «халқ, жамоа, эл» деган маъноларни билдириб, милодий III – IV асрларга тегишли суғдий ёзувли Чоч тангаларида *c's'npr* «Қапан-наф» сўзи «Чоч халқи, Чоч жамоаси» маъноларида келади. Бундан ташқари, «Чачан-наф» ибораси Керчево (Россия Федерацияси), Хитойдан топилган қадимги чочликларга тегишли кумуш ва сопол буюмларда ҳам ўрин олган. Демак, Кўкшашир суғдий битиғи қадимги Чоч (Тошкент) вакиллари томонидан ёзилган дейиш мумкин. Бу эса милоднинг илк асрларидан VIII асргача Чоч воҳасида расмий ёзувлардан бири сифатида қўлланилган суғдий тил ва ёзувнинг воҳа бўйлаб тарқалиш кўлами Ғарбий Тангритоғнинг тоғ ичи дараларигача ёйилганини кўрсатади. Бунгача суғдий ёзувли сопол ва металл буюмлар, муҳр ва тангалар кўпроқ Тошкент воҳасининг марказий ҳудудларида, айниқса, воҳанинг Қанқа, Хонобод каби қадимий шаҳар қодиқларидан топилган эди.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, қадимдан Чотқол тоғ тизмаси ҳудудлари ўсимлик ва ҳайвонот дунёсига жуда бой бўлиб, бу жараён айнан шу ерларда яшаган овчи ва чорвадор халқларнинг ҳаёт кечириши учун қулай имконият яратган. Буни археологик тадқиқотлар натижасида аниқланган инсоният тарихий тараққиётининг турли босқичларига оид моддий-маданий ва археологик ёдгорликларнинг кўплиги ҳам кўрсатиб турибди. Жумладан, овчи ва чорвадор қабилалардан мерос қолган қоятош расмлари Чотқол тоғ тизмасининг деярли барча сой дараларида учрамоқда. Бу эса мазкур ҳудуднинг инсоният томонидан жуда қадимдан ўзлаштирилганлиги ва уларнинг хўжалигида ҳайвонот ва ўсимлик оламининг ўзига хос ўрин тутганини кўрсатади.



(1-расм)*nwprn* “Нав-фарн” “Янги қут (эгаси)”



Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Кабиров Ж. Исследование наскальных изображений в Узбекистане.: Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1974. – С. 23.
2. Холматов А.Н. Ўзбекистон қоятош расмларининг ўрганилиш тарихи // “Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммолари ёш тадқиқотчилар талқинида” мавзусида 2010 йил – Баркамол авлод йилига бағишлаб Археология институтида 25-26 ноябрда ўтказилган Ёш олимлар конференцияси материаллари. – Самарқанд, 2010. – бетлар.
3. Ортиқов У.М., Исмоилов Б.А. Қўшработ туман Шова қишлоғидаги янги қоятош расмлари ҳақида дастлабки мулоҳазалар // “Марказий Осиё тарихи ва археологияси муаммолари” мавзусидаги Республика илмий конференция материаллари. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2018. – 4 б
4. Хўжаназаров М.М, Холматов А.Н. Қорақиясой қоятош ёдгорлиги тадқиқотларидан. - Ўзбекистон моддий маданияти тарихи. №37. – Тошкент, 2012. - Б. 53-57.
5. Newly discovered petroglyphs in Kyzyl Dara gorge, western Tian Shan, Uzbekistan. M. Leloch, M. Kot, M.M. Khujanazarov, A.N. Kholmatov // Rock Art Research 2020 Volume 37, Number 2. – P. 228.



ҚАРАҚАЛПАҚСТАНДА АҲҲЛ ХОЖАЛЫҒЫ ҚӘНИГЕЛЕРИН ТАЯРЛАҲДА ХАЯЛ-ҚЫЗЛАРДЫҢ ОРНЫ (1930-1980 ЖЫЛЛАР)

Караманова Гулистан,

Мнажатдинова Қызлархан,

Бердақ атындағы ҚМУ, Археология кафедрасы доценти,
тарийх илимлериниң кандидаты, доцент;

Бердақ атындағы ҚМУ, Археология кафедрасы ассистенти.

Нөкис қаласы, Өзбекстан. g_karamanova@mail.ru

Аннотация. Мақолада ХХ асрнинг 30-80 йилларида Қорақалпоғистонда қишлоқ хўжалигида хотин-қизлар меҳнати, соҳани кадрлар билан таъминлашда уларнинг ўрни сўз этилади.

Калит сўзлар. Қорақалпоғистон, қишлоқ хўжалиги, хотин-қизлар, «кетмончилар ҳаракати», тракторчилар курслари, техникум, МТС, механизаторлар курслари.

ХХ асирдиң 30-жылларының орталарында техника жетиспеўшилигинен, еркеклер тий-карынан салма, каналлар қазыўға тартылған. Хаял-қызлардан аўыл хожалығы қәнигелерин таярлаў мақсетинде арнаўлы тракторшылар курслары ашылған [1, 95]. Усындай ҳәм усыған уқсас илажлардан кейин хаяллар өзлериниң тийкарғы ўазыйпаларынан, ўй-хожалығынан, бала тәрбиясынан узақласа баслаған. Себеби партия ҳәм совет ҳүкиметин хаял-қызлардың ден-саўлығы, келешек аўлад тәғдири айтарлықтай тәшиўишке салмаған. Олардың тийкарғы мақсети қысқа ўақыт ишинде жобаларды артығы менен орынлаў, пахта жеке ҳәкимлигине ерисийге бағдарланды. Буның ушын төмендеги форма ҳәм усыллар қолланылған, ҳәрекетлер шөлкемлестирилген.

Хаял-қызлар арасында жердиң ҳәр бир гектарынан 20-30 центнерден жокары зүрәат алыў ушын «Жигирмашылар», «Отызшылар», көбирек пахта терий ушын «Бес мыңшылар», «Биринши санлы Сталин жолламасы ушын», «Сталинше жүрис», «Жаксы кетпенши» атлары ушын ҳәрекетлер шөлкемлестирилген ҳәм усыған ылайық сүренлер қолланылған [1, 96]. Еки қолы менен пахта терген хаяллардың аты айрықша ҳүрмет пенен тилге алынған. Тракторшы хаяллар ортасында «кем жанар май жумсап, көп жер сүрий» сүрени менен жарыслар шөлкемлестирилген.

Хаял-қызларды «колхоз өнди́рисине» тартыў мәселеси ХХ асирдиң 30-жылларында МТС қасында шөлкемлестирилген сиясий бөлимлер тәрәпинен алып барған. Атап айтқанда бул жумыс пенен хаял-қызлар органы яки хаял-қызлар менен ислесиў бойынша сиясий бөлим баслықларының жәрдемшилері шуғылланған. Хаял-қызларды колхозларда, аўылларда, районларда басшы хызмет орынларына тартыў ҳәм хаял-қызлардан шыққан белсендилерге аҳмийет берилди. Мәселен, Төрткүл МТСи сиясий бөлиминиң ҳәрекеті менен 11 колхозда 11 хаял-қыз колхоз басқармасы президиумының ағзасы болған, 3 хаял-қыз колхоздың ревизиялық комиссиясында исле́ди.

Совет ҳәкимиятының хаял-қызларға итибар бериўиниң өзине тән себеплери бар еди. Бир ғана мысал, 30-жыллардың басында Қарақалпақстанда 1300 хаял-қызлардың қатнасыўында совет ҳүкиметине 13 мәрте қарсы шығыўлары жүз берди. Демек, совет ҳәкимияты хаял-қызларды өз тәсиринде сақлап ҳәм бақлап турыўдың түрли жолларын қолланыўға мәжбүр болды.

Пахтаға жақсы күтим-тәрбия бериў бойынша Шаббаз районында шөлкемлестирилген кетпеншилер ҳәрекетинде тек 11 хаял ғана қатнасқан. Хәрекетте қатнасып, белгиленген жақсы кетпенши нормасын 120-180 процент орынлаған жарыс «жеңимпаз»ларының атлары мәжилисlerde айрықша айтып өтилген. Эркаева Бибижан жобаны 140, Перимбетова Парда 142, Матякубова Г. 140, Алимова Саодат 120 процентке орынлаған. Ал, Юлдашева Гулжан пахтаға кетпен менен күтим бериў жобасын 133 процентке, салма қазыў жобасын болса 140 процентке орынлаған. Бундай «кетпеншилер ҳәрекеті» Қарақалпақстанның



Қараөзек, Тахтакөпир, Қыпшақ районларында да шөлкемлестирилген ҳам ҳаял-қызлар бунда белсене қатнашқан.

Совет ҳақимияты тәрәпинен енгизилген ҳаял-қызлар ҳам ер адамлар мийнетин теңлестириў тенденциясы тарийх илимлериниң докторы, профессор Д.А.Алимованиң атап өткениндөй, бул тенденциядағы теңлик айтылған мәнисинде түсинилди [2, 262]. Өндиристиң барлық түрине ҳаял-қызлар мийнети енгизилди. Күш пенен 30-жыллардың ақырындағы күш пенен «теңлестириў» нәтийжесинде ҳаяллар ер адамлардың кәсибинин 50%ин ийеледи, әлбетте олардың мийнети аўыл хожалығында кең қолланылды.

Мәселен, 30-жыллары Өзбекстанның пахта жетистириўши районларында ҳаял-қызлар мийнети жұмыс күшиниң 80%ин қурады [2, 263]. Олардың мийнети аўыл хожалығының 15 түринде, тухым тазалаўдан тартып, жер сүриўге шекем қолланылды. Мәселен, 1940-жылдың мартында Сүёенли каналы трассасында 2000 ҳаял-қызлар ер адамлар менен бирдей турып мийнет етти. Олардың арасында Қараөзек районынан Гулхатиша Ембергенова, Шымбай районынан Райхан Палўаниязова ҳам Илья Қанназаровалар, Тахтакөпир районынан Гулжан Қурбанова, Хатиша Тулепова ҳам Тумар Есеновалар, Қыпшақ районынан Биби Сапарова ҳ.т.б. болды [3, 109].

Ҳаял-қызлардан ҳәр түрли кәнигелер таярлаўға айрықша итибар қаратылған. 1938-жылы Қарақалпақстан Жоқарғы Совети қасында шөлкемлестирилген 4 айлық курсларын питкерген 28 ҳаял китапхана баслығына, кадрлар бөлими баслығы, колхоз баслығына, аўыл совет баслығына, қаржы бөлими инструкторлығына тайынланып районларға жұмысқа жиберилген.

Урыс жыллары техникум ҳам МТСларда санаат ҳам аўыл-хожалығы ушын кадрлар таярлаўдың 1 ҳам 6 айлық қысқа мүддетли курслары, 10 күнлик семинары шөлкемлестирилген, нәтийжеде урыстың биринши 6 айында 633 жұмысшы таярланған, соннан 381и ҳаяллар болған [4, 26].

50-жыллардың ақырларынан ҳаял-қызлар техникаға кең тартылды. Ҳаял-қызлардан механизатор кадрлар таярлаў иси әсиресе 60-70-жылларда ҳәйиж алды. Солардың ишинде Әмиўдәрәя районының «Крупская атындағы колхоз»ынан атақлы механизатор Айым Камалова 1961-жылы трактор, пахта териў машиналарын меңгериў туўралы ҳаял-қызларға шақырық жәриялады. Бул сол дәўирдиң мәжбүрияты еди. Егер 1960-жылы механизаторлар курсын 350 ҳаял-қыз питкерген болса, ал 1965-жылы олардың саны 632 ге жетти [5, 47].

Ҳақыйқатында, ҳаял-қызлар бул кәсипти ийелеўлери ақыбетинде, ҳәтте майып болып қалыўлары, бул ис оларға жүдә аўыр болып, техниканы басқарыў ҳам оңлаўда көп қыйыншылықларға ушырады [6, 258].

70-80-жылларда Қарақалпақстанда аўыл халқының билим алыў дәрежесин сезилерли санларда көрсетиў мүмкин. Жұмыс ислеп атырған орта билимли ер адамлар 1959-жылы 381, ҳаяллар – 277 болған болса, сәйкес түрде 1979-жылы 741 ҳам 706, 1989-жылы – 818 ҳам 930, ал жоқары билимли ер адамлар 1959-жылы – 25, ал ҳаяллар – 10, сәйкес түрде 1979-жылы – 10 ҳам 15, 1979-жылы – 110 ҳам 65, 1989-жылы – 122 ҳам 105ти қураған.

Тарийх илимлериниң докторы Б.Шамамбетов изертлеўлеринде көрсетиўинше, мийнетке жарамлы жастағы (30 – 40 жас) ҳаял-қызлардың мийнет активлиги 1959 – 1989-жыллардың ишинде 61,8% тен 72,7% ке шекем өсти [5, 107].

Аўыл хожалығының тийкарғы тараўларының – пахташылық пенен салыгершиликтиң кеңейтилиўине байланысly ҳаял-қызлардың жұмыс күшине болған талап жоқары дәрежесинде қалды. Аўыллық жерлерде жұмыс ислеитуғын ҳаял-қызлардың тийкарғы бөлеги (66%и) өндирислик сферада, ал 26,3%и өндирислик емес сферада хызмет етеди. Бул нәрсе аўыл хожалық өндирисинде ҳаял-қызлар мийнетиниң жоқары үлесин көрсетеди.

Биринши Президентимиз И.А.Каримов еле совет ҳақимияты жасап турған дәўирде-ақ, халқымыз турмысын терең талқылап илажлар көриўге ҳәрекет етти. Усындай талқылаўларға қарағанда сол дәўирде көп перзентли шаңарақлардың тийкарғы бөлими жұмысшы, колхозшы ҳам үй бийкелерине туўра келген. Бул усы социаллық топардағы ҳаяллардың мийнетин жәнеде аўырластырған. Сонлықтан, ҳаялларды аўыр мийнеттен қутқарыў, оларға



қысқартырылган жумыс күнин белгилеў, күнделик турмыс ушын барлық шараятларды жаратып, бул бойынша кемшиликлерди сапластырыўға айрықша дыққат қаратылған [7, 41].

Пайдаланылған әдебиятлар:

1. Абдуллаева Я. Қарақалпақстан ҳаял-қызлары: кеше ҳәм бүгин. XIX әсирдиң ақыры ҳәм XX әсир. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2010.
2. Алимова Д.А. История как история, история как наука. Т. 1. История и историческое сознание. – Ташкент: Узбекистан, 2008.
3. Караманова Г. История аграрных отношений В Каракалпакстане (1917-1941 гг.) / Рукопись дисс. на соискание канд. ист. наук. – Нукус, 2012.
4. Шарипова К.Г. Қарақалпақстан партия шөлкеми уллы ўатандарлық урыс жылларында. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1974.
5. Шамамбетов Б. Қарақалпақстанның аўыл хожалығы (1965-1985 жыллар). – Нөкис: Қарақалпақстан, 1992.
6. Раззоқов А. Ўзбекистон пахтачилиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994.
7. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг “Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида” китобини ўрганиш бўйича ўқув-услугий қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 2012.

“ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ”

(3-қисм)

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.11.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000
